

• SO'Z CHAMANI •

---

# MASHRAB

---

821.542 | 133

M 34 | 2020 | 131-32  
Mashrab


2020 | 131-32

821,512,433

M 34

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,  
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.  
Alisher Navoiy*

---

# MASHRAB

---

16+

Toshkent  
«Akademnashr»  
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)'6

M 34

- Ӯзбек аудио йоли  
she'zofat.

- M 34 **Mashrab [Matn]** : she'rlar / nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek.  
· Toshkent : Akademnashr, 2020. - 128 b.

ISBN 978-9943-6359-2-0

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)'6

Nashrga tayyorlovchi va ilmiy-ma'nifiy izohlar muallifi  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar  
murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi  
**MIRZO KENJABEK**

سَمْنَةُ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

«So'z chamanı» turkum kitoblarining navbatdagi risolasi  
otashqalb shoir, buyuk ilohiy muhabbat va ma'rifat sohibi Bo-  
borahim Mashrab she'rlaridan tuzildi. Ushbu nurli va rangin  
dasta muhtaram she'r muhiblariga sevimli hamroh bo'ladi deb  
ishonamiz. Chunki orif va oshiq shoir xazinasi kamayish bilmas-  
dan, asrlar osha ko'ngillarda ortib boruvchi ma'naviy ne'matdir.  
Risolaga marhum olim Jaloliddin Yusufiy tomonidan jamlangan  
Devon asos qilib olindi.

2020/131 Alis'ier Navoiy  
nomidagi  
32 O'zbekiston MK

48348  
10 2

ISBN 978-9943-6359-2-0

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

Ўзбекистон

\* \* \*

Kori muflis sahl<sup>1</sup> erurkim podshoning oldida,  
Siynayi daftarni ochmang dilsiyoning oldida.

Man tasadduqi o'shandoq olyhimmatlar bo'lay,  
Ikki olam bir qadamdur avliyoning oldida.

Rahmatan-lil-'olamiynning<sup>2</sup> ummati bo'lsang agar,  
Rohi aslingdin gapurma ro'siyoning oldida.

Kimki johildur, nasihat bersang, anga saxt yetar,  
Ikki dunyo nur bo'lur sohib duoning oldida.

Domani davlatni tutganlar bilur bul ma'nini,  
Yaxshi so'zni so'zlamang baxti qaroning oldida.

Mashrab, har qayga borsang, izlagil ganji nihon,  
Ro'zi Mahshar qurb topgaysan Xudoning oldida.

\* \* \*

Man nola qilay shom-u sahar dod, eshicingda,  
Jonimni beray, sho'xi parizod, eshicingda.

<sup>1</sup> **Sahl** — yengil, oson, mushkul emas.

<sup>2</sup> **Rahmatan illi-'olamlyn** — Qur'oni karim ifodasi: Olamlarga rahmat payg'ambar — hazrati Muhammad alayhissalom. 21/Anbiyo surasi, 107-oyati mazmuni: «(Ey Muhammad!) Biz sizni olamlarga faqatgina rahmat qilib yubordik».

Ul lola-vu, rayhon-u suman, toza qızıl gul  
Ham sarv bukuldi, qadi shamshod, eshicingda.

Xo'boni jahon bo'lsa taqi Yusufi Kan'on,  
Sulton-u amir, bandayı ozod<sup>3</sup> eshicingda.

Zulfiq seni bu Jonima yuz domı balodur,  
Jonim qushi sayd o'ldi, chu sayyod eshicingda.

Olam borisi lazzati husningni topibdur,  
Giryon-u fig'on, nola-vu faryod eshicingda.

Savdoyi muhabbatga tushubman sanı ızlab,  
O'ldurdi g'aming, ko'zları jallod, eshicingda.

Ashkim to'kibon hajr-u g'amingda kecha-kunduz,  
Vayrona vatan – manzılı obod eshicingda.

Ul husni jamoling o'tı Mashrabg'a tushubdur,  
Parvonasifat kuydi, parizod, eshicingda.

\* \* \*

Jumlayi maqsudni san zoti Allohdin tila,  
San gadosan, hojatingni shay'an-lilloh<sup>4</sup> din tila.

<sup>3</sup> Bandayı ozod – ozod qui ma'nosida.

<sup>4</sup> Shay'an-lilloh – tilanchilar so'zi: «Alloh uchun bir narsa ber». Bu o'rinda duo ma'nosida.

Va'da qilg'ondurki: «Hech mo'munni zoye qo'ymayin»,<sup>5</sup>  
Oncha hojotingni san «**hajran jamilo**»din<sup>6</sup> tila.

Gar inoyat qilmasa, qilg'on namozing nodurust,  
Hosili uqboni san ul fayzi Allohdin tila.

«**Rabbiyyal-a'llo**»<sup>7</sup> debon boshingni qo'yg'il sajdaga,  
Takya qilg'il Ka'bag'a, atringni Allohdin tila.

Chun Xalil<sup>8</sup> otashga kirg'il, butga sajda qilmag'il,  
Ganji dilni kotibi «**Nahn-u qasamno**»din<sup>9</sup> tila.

Oni bir oti Sami'dur, yona bir oti Basir,<sup>10</sup>  
San duoning fathini «**Alhamdu lilloh**»din<sup>11</sup> tila.

<sup>5</sup> Baqara surasi, 143-oyatiga ishora; mazmuni: «**Alloh sizlarning iymo-**  
**nningizni aslo zoye qilguvchi emasdир**»; yana 18/Kahf surasi, 30-oyati-  
ishora; mazmuni: «**Darhaqiqat, iymon keltirgan va solih** (savobli)  
**amallar qilganlar esa, Biz, albatta, amall go'zal bo'igan kishining**  
**mukofotini aslo zoye qilmasmliz**».

<sup>6</sup> «**Hajran jamilo**» - Qur'oni Karim ifodasi: 73/Muzzammil surasi,  
10-oyatl mazmuni: «U (butparast)larning so'zlariga sabr qiling (ma-  
tonatli be'ling). Ulardan chlroyli birlaytish bilan ayriling».

<sup>7</sup> Asli «**Subhona Rabblyyal-a'llo**» - sajda tasbih: «**Mening olti Rabbim**  
**pok va munazzahdir**».

<sup>8</sup> Xalil - hazrati Ibrohim alayhissalom. Zolim Namrud ul zotni olovga tash-  
laganiga ishora.

<sup>9</sup> «**Nahn-u qasamno** - Biz taqsim qildik; Qur'oni karimning 43/Zuxruf su-  
rasi, 32-oyatiga ishora, mazmuni: «**Rabbingizning rahmatini ular taq-**  
**sim qiladilarmi? Dunyo hayotida ularning rizqi ro'zalarini o'talarida**  
**Biz taqsim qildik!**»

<sup>10</sup> «**Sami'** - eshitguvchi, **Basir** - ko'rguvchi; Haq taoloning subutiy sifat-  
laridan.

<sup>11</sup> Butun hamd (va maqtov) Allohga xosdir; Qur'oni karim ochqichi - Fo-  
tiha surasiga ishora.

Qo'l uzotsang, Mashrabo, ul domani Ahmadga<sup>12</sup> ur,  
Jo'ybori peshaga qo'l solma, daryodin tila.

\* \* \*

Tushti savdoyi muhabbat boshima,  
Or etar mardum kelurg'a qoshima.

Vah, muhabbat ko'yida qon yig'ladim,  
Yetti iqlim g'arq bo'ldi yoshima.

Sajda aylar zohid<sup>13</sup> ul mehrobiga<sup>14</sup>,  
Man qilurman sajda egma qoshima<sup>15</sup>.

Qil hazar, albatta, jonon, qahrdin,  
Uzr-u zorim sanga – bag'ni toshima.

Muhtasib to'kturdi soqly bodasin,  
Yetmadi aqli aning sirdoshima.

<sup>12</sup> Ahmad – hazrati Muhammad alayhissalomning Injilda kelgan va Qur'onda bildirilgan ismlari.

<sup>13</sup> Zohid (ko'pligi zuhhod) – 1) dunyoga xohish bildirmagan, dunyo muhabbatiga ko'ngildan joy bermagan kishi; 2) tasavvufiy adabiyotda: zohid – xom so'fiy, ruhi xom, hall pishmagan, komillikka erishmagan, dinnning mohiyatidan bexabar rasmiyatchi va zohirparast kishi; orif va oshiq bo'magan kimsha.

<sup>14</sup> Mehrob 1) ilk zohid va so'fiylar ibodat qilish uchun tanlagan yolg'izlik burchagini me'rob deyishar edi; 2) xalq qalbi yo'nalgan matlub, maqsud, murod.

<sup>15</sup> Egma qosh (qosh, abru) – tasavvufda: nuqson tufayli solikning daraja va maqomida kuzatilgan tushish, so'ng ilohiy inoyat va jazba sababli yana o'sha maqom va darajasiga qayta ko'tarilishi (troqly).

Kunda yuz ming jabr qilsang, o'rgulay,  
Qo'y qarab g'am toshini bardoshima.

Mashrabi devonani hayron qilib,  
Ne sababdin kelmading bir qoshima?!

\* \* \*

Har kishining dardi bo'lsa, yig'lasun yot oldida,  
Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida.

Andalibi benavodek nola-vu afg'on ila  
Aylanib sayrab yurarman ayni gulzor oldida.

Mansuri Hallojdek<sup>16</sup> ichib «sharoban antahur»,<sup>17</sup>  
Charx urub yig'lab turarman ushbu dam dor oldida.

Har kishi bir jur'aye no'sh aylasa bul bodadin,  
Ul qiyomatda qilur arzini Jabbor oldida.

Telba Mashrab, qilmag'il sirringni zohidga ayon,  
Ayub-aytib yig'lagaysan oshiqi zor oldida.

<sup>16</sup> Mansur Halloj – «Anal-Haq» deganı sabablı dorga hukm qilingan mash-hur so'fly.

<sup>17</sup> Asli «sharoban tahirun» – behad pok sharob; 76/Inson surasining 21-oyatiga Ishora (mazmuni): «Rabbilari ularga (jannat ahliga) behad pok bir (oxirat) sharob(i)ni ichirur».

\* \* \*

Asli davlat din erur, mardi badavlatman dema,  
Dilda ma'ni bo'lmasa, ahli haqiqatman dema.

Gar saxovoting jahonni tutsa chun Hotam sifat,  
Ish niyodin xoli yo'q, sohib saxovatman dema.

Qatrayi obi maniyga mouman<sup>18</sup> lozim emas,  
Mujtahidni o'g'li bo'lsang, bekuduratman dema.

San nasab bozoriga solma o'zungni, ey aziz,  
Mahzi taqlid birlan avlodi Muhammadman dema.

Muttaqiy bo'lmoq, bu yo'lda nafsni o'ldurmoq kerak,  
Zindalikda o'lmasang,<sup>19</sup> ahli tariqatman dema.

Yer yuzining toatin qilganda ojizlikni tut,  
Dilni naxvatdin<sup>20</sup> aritgin, ahli toatman dema.

<sup>18</sup> Mouman – manmanlik, kekkayish, gerdayish, kibr-u havo. Ya'ni, qatra mantydan paydo bo'lgan insonga manmanlik, kibr-u havo durust emas.

<sup>19</sup> «O'lmasdan oldin o'llinglar» degan hadisi sharifga ishora. Hazrati Shahobuddin Suhravardiy: «O'lmasdan oldin o'lmoq qlyomatdan oldin birlmoqdır» deganlar. Ya'ni, qlyomat haqiqatlarini hayoti dunyoda bor vujud bilan his etib yashamoqdır.

<sup>20</sup> Naxvat – bu o'rinda: g'urur, kibr-u havo, katta ketish ma'nosida.

Muhtasibi<sup>21</sup> nafs bo'lsang, dilni shirkatdin arit,  
San bu nodonlik bilan sohib nashatman dema.

Haft iqlim bo'lsa farmoningga chun naqshi nigin,  
Talxiyi jonkandalik bordur, bashavkatman dema.

Bandalikda mustaqim bo'l, gardaningni Anga ber,  
San adam<sup>22</sup> yo'lini tutgil, ahli xizmatman dema.

Qo'p, jihodi akbari qil, nafs birlan san urush,<sup>23</sup>  
To Sirotdin o'tmasang, ahli salomatman dema.

Ne dilovarlarni yiqqan naqdini olganda bil,  
Mushti xokiy bebizoatsan, bahimmatman dema.

Misli Yahyo yig'lagil<sup>24</sup> shom-u sahar motam bilan,  
Diydadin xun to'kkil-u, ahli nadomatman dema.

Xastadil Mashrabning asrorini bilsang, ey hakim,  
Bul xatarlik yo'ldasan, sohib karomatman dema.

<sup>21</sup> Muhtasib - shariatga xilof ishlarni tekshiruvchi; bozordagi tosh-tarozi va narxlarni nazorat qiluvchi; bu orinda: «O'z nafsingni hisob-kitob qiluvchi, tekshiruvchi bo'lsang» degan ma'noda.

<sup>22</sup> Adam - yo'qlik, yo'q bo'lish.

<sup>23</sup> «Jihodi akbar» - «katta urush» demakdir; «Katta urush idshining o'z nafsiqa qarshi qilgan urushidir» degan hadisi sharifga ishora.

<sup>24</sup> Yahyo alayhissalom - Bani Isroll payg'ambarlaridan; «Misli Yahyo yig'lagil» - 19/Maryam surasi, 13-oyatiga ishora, mazmuni: «Yana (Biz Yahyoga) o'z huzurlimizdan bir qalb yumshoqligi (yig'lovchanlik) va (gunohlardan) pokizalik ham (ehson etdik)».

\* \* \*

Banogoh uchradi dilbar kulub mastona-mastona,  
Tavozu' birla taklif ayladi ul so'yi mayxona.

Ko'zi xunxor, labi la'liki, maydin lolagun erdi –  
Ki, man qonlar yutarman o'lqucha paymona-paymona.

Xayoli qomati birlanki man umrumni o'tkardim,  
Mani barcha xaloyiq deydilar: «Devona-devona».

Bihamdilloh,<sup>25</sup> ko'ngulni mosivodin<sup>26</sup> man sivo qildim,  
Aning mehrini<sup>27</sup> sevdim, o'zgadin begona-begona.

Qilib orzu, shu dilbarni ularman kecha-vu kunduz,  
Aning yodini aylarman yurub har yona-hat yona.

Ko'ngulda g'ussa ko'p, hamdard birlan hamdamim yo'qdur,  
Raqiblar o'rtasida telbaman javlona-javlona.

Boshim ketsa, yo'lidan emdi Mashrab, qaytarim yo'qdur,  
Bu jonimni nisor aylay anga mardona-mardona.

<sup>25</sup> Bihamdillah – Allohga hamd (shukr). Allohning hamdi uchun.

<sup>26</sup> Mosivo – ...dan boshqa narsalar; undan boshqa narsalar; Allohdan boshqa narsalar.

<sup>27</sup> Mehr – 1) quyosh; 2) ishq, muhabbat; 3) jamol.

\* \* \*

Dil ani derlarki, hargiz mojarosi bo'lmasa,  
Ko'r ani derlarki, bas, chashmi binosi bo'lmasa.

Jannatul-Firdavsnı muft<sup>28</sup> bersa bu yo'lدا, izlama,  
Xayr ani derlarki, arzandek<sup>29</sup> riyosi bo'lmasa.

Xobgohim Arsh edi, munda g'alat tushtum, dang',  
Nur bo'lar erdimki, nafsi ajdahosi bo'lmasa.

Dedi Payg'ambar bu so'zni, Mashrabو, bo sidq<sup>30</sup> eshit:  
«Do'zaxi derlar ani tarsi Xudosi<sup>31</sup> bo'lmasa».

\* \* \*

Borurman ostoniga sahar ohista-ohista,  
Surarman ko'zlarimga xoki dar ohista-ohista.

O'tar bir-bir bosib ul sho'x, boqmas bevafolikdin,  
Erur andoq vafosiz umr – o'tar ohista-ohista.

Kichiklikda, nigorim, achchig' aytsa, ayb ermasdur –  
Ki, faslida bo'lur shirin samar ohista-ohista.

<sup>28</sup> Muft – tekin, bepul.

<sup>29</sup> Arzan – tariq, parrandalar yemagi; kichik, mayda; arzimas.

<sup>30</sup> Bo sidq – sidq bilan, to'g'rilik bilan.

<sup>31</sup> Tarsi Xudo – Allohdan qo'rquv.

Jamoling barkamol o'ldi, bo'lur bir-bir xating paydo,  
Bahor o'lsa, o'sarlar sabzalar ohista-ohista.

Borur miskin bu Mashrab gul yuzungni ko'rgali, ammo  
Ko'rolmay orazing, yig'lab turar ohista-ohista.

\* \* \*

Sahro yuzi ko'karmas to yoz bo'lmaguncha,  
Bulbul tarannum etmas to g'uncha kułmaguncha.

Ko'zdin chunon suv to'kg'il, iymoning bahra olsun,  
Bog'-u chaman ko'karmas, yomg'ur quyulmaguncha.

Makri raqib birlan hasrat uyiga tushtum,  
G'am rishtasi uzulmas to yor kelmaguncha.

Yuz yil turik yurusang, oxir bir kun o'lursan,  
Afsus ilan ketursan to vosil o'lmaguncha.

Ey Mashrabi qalandar, yaxshig'a banda bo'lg'il,  
Halvoitar bo'lmas shakkar qo'shulmaguncha.

\* \* \*

Sanam yuzini ko'rsatur oshiqi mubtalosig'a,  
G'amu bilan bo'(l)g'on ado Majnuni benavosig'a.

Tolibi ishq o'lay desang himmati Adhami<sup>32</sup> kerak,  
Zarra qachon yetar vale vasli sanam orosig'a.

Yor yuzini ko'ray desang, vasli bilan bo'lay desang,  
Rozi kerak qazosig'a, sabr kerak balosig'a.

O'tti jahondin avliyo, murshid-u orif, anbiyo,  
Bo'lmadilar firiftaye dunyoni mojarosig'a.<sup>33</sup>

Vosili haq bo'lay desang, ishq-u muhabbat hosil et,  
O'rta havo-vu kibr uyn sham'i yuzin ziyyosig'a.

Kuysa muhabbat o'tig'a fisq-u fujur gunohlarin,

Xilvat etib kelur o'zi ko'ngulni xonaqosig'a.

Mashrabi benavodu(r)man, arzi dilimni aytayin:  
Tarahhum ayla, ey pari, ishqingni bul gadosig'a.

\* \* \*

Ko'nglumni berdim san bevafog'a,  
Kuydi yurokim jabr-u jafog'a.

<sup>32</sup> Ibrohim Adham – Allohg'a oshiq bo'llib, Balx podsholigini tark etib, ishq yo'lliga kirgan zot. Farishtalar: «Allohnning oshig'i dunyo libosini tark etib, oxirat libosini klydi» deganlari «Tazktrat ul-avliyo» kitobida bayon qilindil. Hazrat Navoly: «Mulukdin (podshohlardan) erkani xud mashhurdur. Yigitlig'da tavba tavfiqi topti», deganlar.

<sup>33</sup> Ya'ni: «Dunyoning mojarosiga aldanmay o'tdilar».

Ey nozaninim, rahm ayla manga,  
Qoldim sani deb yuz ming balog'a.

Mehnat chekarman, rohat ko'ray deb,  
Qilsang jafolar, yig'lay Xudog'a.

Bemori ishqing bo'ldim, netarman,  
Sobir – balog'a, rozi – qazog'a.

Mujgoning o'qi o'tti yurakdin,  
Nogoh sovuq so'z tushdi arog'a.

Mashrab sani deb kechdi jahondin,  
Rahm ayla, Shoho, muflis<sup>34</sup> gadog'a.

\* \* \*

Ko'rsat jamoling mastonalarg'a,  
Ishqingda kuygan parvonalarg'a.

Mandin duodur, Sandin ijobat,  
Jonim tasadduq jononalarg'a.

Ey ko'ngli qattig', rahm aylamaysan,  
Qilg'il nazar san bechoralarg'a.

<sup>34</sup> Muflis – yo'qsil, faqir, benavo, nochor, bechora, qashshoq. Bu o'rinda «oxirat ozuqasi kam» degan ma'nodagi tavozu bor.

Kuygan g'aribman, shafqat qil oxir,  
Ko'yingda yurgan devonalarg'a.

Mashrab sani deb kechti jahondin,  
Boshini qo'yub ostonalarg'a.

\* \* \*

Arzimni aytay bodi sabog'a,  
Bizdin duolar ul dirlrabog'a.

Ko'zlan Cho'lpon, sarvi xiromon,  
Zulfi parishon, qoshi qarop'a.

Qomati larzon, va'dasi yolg'on,  
Turmadi hargiz ahd-u vafog'a.

Uchdi ko'zimdin ul pari yanglig',  
Tashladi-ketti turli balog'a.

Shohi mukarram, shohi mu'azzam<sup>35</sup>,  
Qilmadi shafqat muflis gadog'a.

Qilduk ikovlon bir ahd-u paymon,  
Har kim yomondur, soldim Xudog'a.

<sup>35</sup> Muazzam — buyuk, azim, ulug', hurmatli.

Dardi firoqing ayladi bemor,  
Qayg'a boroyin emdi davog'a.

Hajringda qildim tinmay fig'onlar,  
Yetti bu nolam arz-u samog'a.

Qilg'il tarahhum, ey yori jonim,  
Loyiq emasman jabr-u jafog'a.

Dard-u alamdin bol-u par aylab,  
Shahboz<sup>36</sup> ko'nglum uchdi samog'a.

Yo'l bermadilar manga raqiblar,  
Chiqdim bosh olib bul Karbalog'a.<sup>37</sup>

Ey yori badahd, bemehr ekansan,  
Rahn aylamaysan man mubtalog'a.

Dard-u g'am ichra sarg'aydi yuzum,  
Rang bergusidur ul kahrabog'a.

Ey bag'ri toshim, hajringda kuydum,  
Topshurdum oxir qodir Xudog'a.

<sup>36</sup> Shahboz (shohboz) – lochin.

<sup>37</sup> Karbalo – bu o'rinda: shahidlar maskani ma'nosida.

Ey jonajonim, ko'rsam jamoling,  
Jonim tasadduq san xush adog'a.

Ishqingda kuydim, ey sarvinozim,  
Bir marhamat qil, man benavog'a.

Dilxasta Mashrab qilmasmi faryod,  
Jallod ko'zlar olsa arog'a!

\* \* \*


To kiydi qizil o'zini zebo qilayin deb,  
O't yoqtı jahon mulkida g'avg'o qilayin deb.

Mastona xirom etti-yu ko'rguzdi qadini,  
Mandek necha devonani shaydo qilayin deb.

Zebo sanamim gul yuzidin pardar ko'tardi,  
Olam hama ko'z bo'ldi tamoshho qilayin deb.

Zulfini tarab, qosh uchurub jilvalar etti,  
Oshubi balo, fitnani barpo qilayin deb.

To ayladim oldig'a borib arzi niyoziim,  
Chin soldi jabinig'a tamanno qilayin deb.



Mastona samand sekrata keldi shahi xunrez,  
Shamshiri jafoni yana burro qilayin deb.

Ko'p yilki bu qul xizmatini qilmadi barjo,  
Keldiki g'azab birlan chu sazo qilayin deb.

Boshimni kesib olg'il-u xushhol bo'lub ket,  
Qonimni to'kub lolayi sahro qilayin deb.

Xanjar qo'lida, Mashrabin o'ldurg'ali keldi,  
G'avg'oyi qiyomatni huvaydo<sup>38</sup> qilayin deb.

\* \* \*

G'am biyobonida qoldim, yig'ladim ko'p yor deb,  
Oh urub, faryod etib, bulbuldayin gulzor, deb.

Kecha-vu kunduz kuyarman ishq o'tig'a doimo,  
Darbadar izlab yururman sohibi asror deb.

Lashkari g'am ham sinuq ko'nglumni afgor ayladi,  
To davosiz dardga qoldim, ojiz-u bemor deb.

Garchi osiyman, emasman rahmatingdin noumid,  
Har na qilsa, erki bor, ul bandasi nochor deb.

<sup>38</sup> Huvaydo – ayon, ravshan, zohir, belgilii, oshkor.

Mag'firatlik bir Egam deb bo'lma g'ofil, Mashrabo,<sup>39</sup>  
Garchi G'ofirdurki, yo'qdur mehribon, Jabbor deb.

\* \* \*

Shuhrat aylabkim, alardek xudnamolarni ko'rung,  
Zohiri, suvratparast nooshnolarni ko'rung.

Yo'lni bilmas ummi(y)larning ko'ziga orif bo'lub,  
O'zi manzilga yetolmay, nobinolarni ko'rung.

Barchaga aylar nasihat, o'zini dono etib,  
Yo'lda qolq'an bekas-u berahnamolarni ko'rung.

Kufr-u iymonni bilolmaslar, karomat aylabon,  
Toat-u taqvo bilan sohibriyolarni ko'rung.

O'zini aybin yopib, xalq aybini ifsho qilib,  
Zohir-u botinda mundog' norasolarni ko'rung.

Har kishi so'rsa nasabdin, darm urarlar nafs uchun,  
Botini – Fir'avn-u, zohir – avliyolarni ko'rung.

<sup>39</sup> Luqmon surasining 33-oyatiga ishora; ma'nosi: «Bas, sizlarni dunyo  
hayoti aldab qo'ymasin! O'ta aldamchi (shayton va uning do'stlari)  
ham sizlarni Alloh (ning mag'firati va marhamati keng, gunohlar qilib  
yayrab qolninglar degan firlb) bilan aldab qo'ymasin (gunohga botirib,  
lbodatdan chalg'itmasin)!»

Lof urarlar orifi yakdilaman deb xalq aro,  
Xalqni gumroh qilib, yuzi qarolarni ko'rung.

Zohurida so'fiyman deb tarki dunyo aylagan,  
Botini dunyoga moyil baxti qarolarni ko'rung.

Xalqning ko'ziga har dam suvratin digar qilib,  
Nafs uchun shayton bilan yurgan gadolarni ko'ring.

O'zining avlodini xalq ichida ifsho qilib,  
Tanda yo'q ma'no, quruq nomi sarolarni ko'rung.

Shuhratim ofat bo'lur deb Mashrabing qo'l olmadi,  
Ko'zda yoshim qatrasи – durri baqolarni ko'rung.<sup>40</sup>

\* \* \*

Jafo qilding bu jonimg'a, vafoni ko'rmadim hargiz,  
Bu olamda o'zumdek mubtaloni ko'rmadim hargiz.

Muhabbat yo'liga qo'ydim qadam, holim zabun bo'ldi,  
Ba g'ayr az mehnatu, dard-u baloni ko'rmadim hargiz.

■ Bu g'azalda 49\Hujurot surasining 13-oyatiga ishorat qilinmoqda;  
ma'nosi: «...Shubhasiz, sizlarning Allah nazrida eng muhtaram  
ro'ingiz eng taqvolirog'ingizdir (Allohning amrihanga eng muvofiq  
yashab, gunohlardan saqlanganingizdir). Albatta, Allah benihoyat bil-  
guvchidir, (hamma narsadan) xabardor Zotdir».

Tabibo, muddate bo'ldiki, man dardga hamdamman,  
Uzuldi rishtayı jonim, davoni ko'rmadim hargiz.

Hama suvratparast bo'ldi fash-u<sup>41</sup> dastorig'a<sup>42</sup> mag'rur –  
Ki, zuhhod<sup>43</sup> ichra mutloq benyoni ko'rmadim hargiz.

Musibat seylining barbodi bo'ldum ko'hna dunyoda,  
Qo'lumni tutqudek bir oshnoni ko'rmadim hargiz.

Yetushti bastalik<sup>44</sup> korimg'a, bilmamdur ilojini,  
Adashgan yerda so'rg'an tahnemoni ko'rmadim hargiz.

Yozildi taxtayi iqbolima sardaftari g'urbat,  
Talab vaqtida bir sohibduoni<sup>45</sup> ko'rmadim hargiz.

Jarohatlig' dilimning zaxmini har kimga ko'rsattim,  
Ajab tole' zarbundurman, shifoni ko'rmadim hargiz.

Buzulgan xotirim hargiz jahonda ko'rmadi shodiy,  
Jahon avvonida g'ayr az jafoni ko'rmadim hargiz.

<sup>41</sup> Fash - sallaning pechi, sallaning yelkaga tushadigan qismi, uchi.

<sup>42</sup> Dastor - sala.

<sup>43</sup> Zuhhod («zohid»ning ko'plik shakli) - zohidlar, obidlar; dunyoga ko'n-gli bermagan taqvo ahllari.

<sup>44</sup> Bastalik - bog'lilik; «Ishlarim bog'landi» ma'nosida.

<sup>45</sup> Sohibduo - duo egasl, ya'ni duosi ijobat albatta bo'ladigan xolis zot.

Jahonni tark qildim, Mashrabo, Ibrohim Adhamdek,  
Saropo<sup>46</sup> dard ko'rdum, muddaoni ko'rmadim hargiz.

\* \* \*

Barchalar yondi<sup>47</sup> gunohdin, manki yonmasman hanuz,  
Xobi g'aflatdan uyondi, man uyomasman hanuz.

Tavbayi tavfiq bilan yig'lab turarlar zor-zor,  
Oxirat a'molin aytib, man qutulmasman hanuz.

Bandalarkim, lutfinga har su suyonib o'lturur,  
Bedavo nafsimni izlab man suyonmasman hanuz.

Orif-u sodiq – hama pand-u nasihat oldilar,  
Barcha panding oldilar, pandingni olmasman hanuz.

Bandalik qilsang, takabbur qilma, shayton fe'lidur,  
Man takabburdin zamone xoliy ermasman hanuz.

Bandalik qilmay Azozil, bo'ldi sarkash amriga,  
Rondayı dargoh bo'ldi<sup>48</sup>, manki yonmasman hanuz.

<sup>46</sup> Saropo – boshdan-oyoq.

<sup>47</sup> Yonmoq – qaytmoq; «barchalar gunohlaridan qaytdi, tavba qildi, men hanuz qaytmayman» degan ma'nodagi tavozu va taassufdir.

<sup>48</sup> Rondayı dargoh bo'ldi – (Azozil, ya'nı iblis) dargohdan (dargohi ilohiyadan) quvildi.

Dunyonı ko'p yig'di Qorun,<sup>49</sup> ketti ul yer qa'riga,  
Dunyodin bir dam zamon ko'ngul uzolmasman hanuz.

Banda bo'lsang, Mashrabo, kechkil havoyi hirsdin,  
Kechdi barcha hirsidin, hargiz kecholmasman hanuz.

\* \* \*

Kecha bazmingdin yiroq ishq ahli chandon yig'ladi,  
Kuydi ham parvona-vu sham'i shabiston yig'ladi.

Sog'inib Yusufni Ya'qub yig'ladi shom-u sahar,  
To musofir bo'ldi Yusuf, ahli Kan'on yig'ladi.

Soqiy sung'onda, surohiy<sup>50</sup> dam-badam faryod etib,  
Ahli majlis oldida yosh o'rniq'a qon yig'ladi.

Hajr shomi kuyganimg'a kuydi-yu o'rtandi barq,  
Ham mani dardi dilimga charxi gardon yig'ladi.

<sup>49</sup> Qorun - bani Isroll qavmidan, hazrati Muso alayhissalomning ahlidan, ya'nı amakistining o'g'li edi. Ilmu fazida benazir bo'lgan, lekin boyligiga kibr qilib, tug'yonga ketgan, oqibatda mol-dunyosi, uy-joyi, qasr-u saroyt bilan birga yerga yuttilib yuborilgan. Qasas surasida uning bayoni kela-dil; 66-oyatda (ma'nosil): «Darhaqiqat, Qorun Muso qavmidan (amaki-sining o'g'li) edi. Ammo ularga qarshi tug'yon qildi. Blz unga shunday xazinalar berdikki, uning kalitdarlari(ni ko'tarib yurish) baquvvat Jamoaga ham og'irtik qilar edi...» deyilsa, 81-oyatda: «Nihoyat, Blz uni ham, uy-joy (qasr-u Imoratlar)lni ham yerga yuttilib yubordik...», deyiladi. Navoly «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida uni «ilmu fazida mun-farid erdi», deydilar va uning ayanchli qismatini bayon qiladilar. Mumtoz adabiyotda Qorun zikri ko'p uchraydi.

<sup>50</sup> Suroh - har narsaning xolislik xislati; xulosa; ravshanlik («G'lyos ul-lug'ot»); suohty — qadah, kosa, (xolls, sof) may quyiladigan idish.

Har tikan g'am tog'ida sanchib oyog'im qildi qon,  
Manga yor rahm aylamas, xorl mug'ilon<sup>51</sup> yig'ladi.

Bo'lmasun ogoh kishi holi dilimdin xalq aro,  
Garchi kului og'zimiz, ammo dil-u jon yig'ladi.

Mashrabo, gar jon yaqosin chok-chok etsam ne tong,  
Kim, falak ham javri ul sarvi xiromon yig'ladi.

\* \* \*

Ming sho'ri fig'on birlan, hay-hay, ne balo keldi,  
Jon qichqiradur qo'y deb, xanjatni olo keldi.

Qo'lida qilich fo'lod, qoshimg'a kelib jallod,  
Qildi mani bebunyod, tiyg'i guzaro keldi.

Ketsam bu alam birlan, yuz kohish-u g'am birlan,  
Savdoyi sanam birlan, xush davri safo keldi.

Rozi bo'layin o'lsam, jon bergu(n)cha bir ko'rsam,  
Mundog' ne balo birlan shiddatli qazo keldi.

<sup>51</sup> Mug'ilon - babul (akatsiya) daraxti; tikanli daraxt; asli «ummg'ilon» - jinlar onasi degan ma'noda bo'lgan; xorl mug'ilon - o'sha daraxtning tikanli.

Zahmatga qazo yondosh, bo'ldi hammasi yo'ldosh,  
Ul javr-u jafo podosh, tiklab yuguro keldi.

Devonayi Mashrab san, qo'rqub nega yig'larsan? –  
Oshiq kishiga o'lmoq kim, ayni shifo keldi.

\* \* \*

Oq yuzungda xol-u xat, ko'z ko'rmag'aydi koshki,  
Ko'ngluma yuz dog'i g'amni qo'yimag'aydi koshki.

Ishqida ho' aylagach, ketti futur din uyidin,  
Bodani beg'ash ko'ribon sunmag'aydi koshki.

Chun Namangandin Xo'tan parvoz aylab murg'i ruh,  
Donayi xolin ko'rubon qo'nmag'aydi koshki.

Yor jilva birla boqtı, ruh-u jon bo'ldi kabob,  
Bul jafolarnı boshimg'a solmag'aydi koshki.

Aynliqning dardidan jonim kuyodur, yo magar  
Dog'i hasratdin bu jonim kuymag'aydi koshki.

Koshki Ul olsa bu jonim, dog'i hasrat qo'ymasa,  
Ushbu dog'i ayriliqni ko'rmag'aydi koshki.

Mashrabo, yor xizmatini ayla jon-u dil bilan,  
Ushbu davron ham g'animat bo'limg'aydi koshki.

\* \* \*

Kimga aytib yig'layin nozuk adoning dardini,  
Xonavayron aylagan nooshnoning dardini!

Dilni berdim anga man, g'ayr az jafosin ko'rmadim,  
Aytib-aytib yig'layin ul bevafoning dardini.

Umrum oxir bo'ldi, yetmay domanining gardiga,  
Kimga aytib, kimga yig'lay, dilraboning dardini.

Darbadar ovoraman, kuydi dilim axgarsifat<sup>52</sup>,  
Baxtqaro bo'lgan bilur baxti qaroning dardini.

Osmon besar bo'lur, aytsam alamlik doston,  
Har kishiga ayta bilmam rahnamoning dardini.

Dasht-u sahrolar kuyar Majnunni(ng) tortgan ohida,  
Besarupolar bilur sohibazoning dardini.

Norasolarga suxan qilma, xatodur, Mashrabo,  
Bilmas har kim Choryori bosafoning dardini.

<sup>52</sup> Axgar - laxcha cho'g', olov; ishq.

\* \* \*

G'amza kofir, ishva jodu jilva qolmoqim<sup>53</sup> qani?  
Ko'zi yag'mo, kifriki o'q, jola qalpoqim qani?

Tiyri mujgon g'amzasi ko'p yor uchun devonaman,  
Asli qolmoq, zodi qirg'iz, lola paypoqim qani?

G'unchayi gullar ochilmay, za'faron qildi xazon,  
Dod etar gul g'unchasiq'a: yo suman soqim qani?

Dog'-u dog' ustidadur bag'rim qizil qon ashkdin,  
Siymtan ruxsorayi tannuqra burg'oqim qani?

Yor, Mashrab, ishq o'tini qo'ydi jonim uzrakim,  
Cho'q-cho'q etti ko'nglum otashpora chaqmoqim qani?

\* \* \* Oshiq uldur, to diliga saqlasa astorni,  
Barham ursa yo'lliga olamda yo'q-u borni.

To o'zungga dard tegmay, avlanib kelmas davo,  
Bas, bu ma'nodin hakimlar ko'p so'rар bemorni.

Garchi osiyman, aning dargohidin navmid emam,  
Bir gul uchun suv berurlar sad hazoron xorni.  
Oxiri manzilga yetmasdur kuduratlik ko'ngul,

<sup>53</sup> Jilva qolmoqim - jilva fe'lligim ma'nosida.

Dilga jo bermoq na xojat dushmani g'addorni.

To dilingga ma'tifatdin nuri iymon bo'lmasa,  
Sufilar, bir «Hu»g'a almashlang ani – dastorni.

Xotiri pokingni mashg'ul qilma hargiz dunyag'a,  
Dil g'uboroluda bo'ldi – ul ko'rolmas yorni.

Avliyolardek muazzam bo'layin desang, vale,  
Mashrab, hech kanda qilma dildin istig'forni<sup>54</sup>.

\* \* \*

Do'stlar, yaxshi demanglar odami berohni,  
Misli ul yo'ldin adashgan fosiqi gumrohni.

Mol-u, mulk-u, jon-u jonon sultanat barbod urub,  
Dunyodin parvosi yo'qtur murshidi Allohni.

Demagil hushyor vig'lar oxiratning xavfidin,  
Mard kerak bilgay bu yo'lda mardi dil ogohni.

«At-tavilun ahmaqun»<sup>55</sup> – ul ham hadisda bor ekan,  
Mustafo «al-fitnatun»<sup>56</sup> der odami ko'tohni.

<sup>54</sup> Istig'for – («Astagfirulloh» aytib) kechirim so'rash, afv tilash; tavba qilish.

<sup>55</sup> «At-tavilun ahmaqun» – haddan ortiq uzun odam aqlini kam ishlataldi.

<sup>56</sup> «al-fitnatun» der odami ko'tahni – behad pakana odam fitnalarga sabab bo'ladi.

Bo'yli haddan ortiq uzun odam aqlini kam ishlataldi. Pakana odam fitnalarga sabab bo'ladi.

Man tasadduqi o'shandog' olighthimmatlar bo'lay,  
Ikki olam o'rtanur dildin chiqarsa ohni.

Avliyolardek mu'azzam bo'layin desang bu kun,  
Mashrab, qo'yma tilingdin lahza «Bismillah»ni.

\* \* \*

Qachon bo'lg'ayki, ko'rgayman o'shandog' mohi anqoni?  
Aning oldida ochsam daftari «**Inno fatahno**»ni.<sup>57</sup>

O'shandog' komilening soyasida aylagil orzu,  
Talab qilsang, durust qil hosili dunyo-vu uqboni.

Bayon qilsam, chidolmas otashimg'a suri Istrofil  
«**Maqomi Mahmud**»din oyati «**Nasrum-minalloh**»ni.<sup>58</sup>

Uleki soyayi rahmatga kirdi, g'arqi nur bo'ldi,  
Ne bilsun bebasorat va'dayi «**Mulkan kabiro**»ni?<sup>59</sup>

Tamannoyi tiriklik sud etmasdur ro'zi Mahsharda,

<sup>57</sup> «**Inno fatahno**» - Fath surasi 1-oyati ifodasi: «Inno fatahno laka fat-ham-mublino» - «(Ey Rasulim!) BIZ sizga ochiq fath (va zafar yo'lli)ni ochdik».

<sup>58</sup> «**Nasrum-minalloh**» - Saff surasi, 13-oyat ifodasi: oyatning to'liq ma'nosi: «Sizlarga sevimli boshqa bir ne'mat esa Allohdan madad va yaqin bir fathdir. (Ey Rasulim! Bular haqida) mo'minlarga xushxabar bering!»

<sup>59</sup> «**Mulkan kabiro**» - buyuk sultanat; Inson surasi, 20-oyat ifodasi: to'liq ma'nosi: «(U yerda - jannatda) qay tomon boqsangiz, (ta'rifga slg'mas) bir ne'mat, buyuk bir mulk (va sultanat)ni ko'rurstiz».

Desang yuz til bila «**Yo laytaniy kuntu turobo**»ni<sup>60</sup>.

Xayoli fosid andeshlar iymonning qasdidadurlar,  
San-u manga ochib qo'ymabtilar «**Nahnu qasamno**»ni<sup>61</sup>.

Gunohning marhamidur bandalarga koni istig'for,  
Ko'ngulga kelтирур komil kishi «**Astagfirulloh**»ni.<sup>62</sup>

Guzargohi adamning benihoyat korvoni bor,  
Qani mardonи mardi, vaqtı o'tmay qilsa savdoni.

Kishining bo'lsa iymoni, dilidin tarsi kam bo'lmas,  
Diliga naqsh etar har soat «**Ajran aziymo**»ni<sup>63</sup>.

Maqomi mohi nurdin nasib etgil bu Mashrabga,  
Haqiqat ishtahosidin yutay haftod daryoni.

\* \* \*

«**Yo laytaniy kuntu turobo**» - «Eh, koshki tuproqqa aylanib ketsam edi!»; «Naba' surasi, 40-oyatlı ifodasi; to'liq ma'nosi: «(Chunki) albatta, Biz sizlarni yaqin bir azobdan ogohlantirdik. U Kun kishi o'z (qo'llar)i oldindan yuborgan (yaxshi-yomon, savob-u gunoh) narsalarga qarar va kofir esa: «Eh, koshki men (bu azobni ko'rmay) tuproq bo'llib ketsam edim!» - deb qolur».

«**Nahnu qasamno**» - «Biz taqsim qildik»; Zuxruf surasi, 32-oyat Ifodasi; oyat ma'nosi: «Rabbingizning rahmatini ular taqsim qiladilarimi? Dunyo hayotida ularning rizqi ro'zlarini o'rtalarida Biz taqsim qildik!»

«**Astagfirulloh**» - Allohdan kechirrim so'rab, tavba qilish Ifodasi.

«**Ajran 'azymo**» - Niso surasi, 40-oyatdan: «va yu'di mill-ladunhu ajron 'azymo» - (to'liq oyatning ma'nosi) «Shubhasiz, Alloh zarra miqdoricha nohaqlik qilmas. (Zarra misqollcha) bir yaxshilik bo'lsa, uni (savob Jihatidan) qat-qat orttirur va O'z huzuridan ulug' mukofot berur». Yana ko'p oyatlarda bu ibora keladi.

Bandaman dersan, tilingda zikri Subhoning qani?  
Dast xoliy borasan, bul xayr-u ehsoning qani?

Aylading barbod umrung aysh-u ishratlar bilan,  
Oxirat vahmini qilg'on chashmi giryoning qani?

San yotarsan doimo chun xobi g'aflatlar bilan,  
Uyg'onib tun kechalarda, xatmi Qur'oning qani?

Haq ta'olo amri birlan kelsa Azroil sanga,  
Qabz etar joningni bit kun, fikri iymoning qani?

Bir qarish yetti qarilik, emdi topmassan iloj,  
Ul yigitlik vaqtiga qilg'on pushaymoning qani?

Mashrab, bas, bo'lma g'ofil bul tirklik vaqtida,  
Kecha-kunduz yig'labon qilg'on munojoting qani?

\* \* \*

Bul tani xokini-yu ruhi ravorni na qilay?  
Bo'lmasa qoshimda jonon, bul jahonni na qilay?

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak,

Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay?<sup>64</sup>

Urayinmu boshima sakkiz Bihisht-u Do'zaxin,  
Bo'lmasa vasli manga, ikki jahonni na qilay?

Arshning kungurasin ustiga qo'ydum oyog'im,  
Lomakondin joy olibman, bul makonni na qilay?

Zarrayi nuri quyoshdek bul jahon ichra tamom,  
Oshkorbo bo'lmasa, sirri nihonni na qilay?

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,  
Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay?

\* \* \*

Ko'ngul vujudini buzgan O'ziga nola qilay,  
Boshimni sajdaga qo'yib, Xudoga nola qilay.

Manga bu g'amni solibon, raqibni shod etting,

<sup>64</sup> Ya'ni: «Qalbingda Alloh bo'lmasa, Uning ishqini diydori ishtiyobi, yodi va zikri bo'lmasa, Uning rizoligiga erishish dardi bo'lmasa, Makkai mu-karramaga borishning nima natijasi bor?» – deyilmoqda. Ka'batullohni hazrati Ibrohim alayhissalom o'g'illari Ismoil alayhissalom bilan birga qurbanlari ma'lum. Qur'oni karimdagli «Baytul-'atiyq» – «Qadimly Uy», «Ko'hna ma'bad» degan iborani shoir «Ibrohimdan qolgan eski do'kon» deb tavsliflab, aslida Baytullohning sharafi ulug'ligini bildirmoqda. Odatta, tijorat do'konda qillinadi. Ka'butulloh esa oxirat tijorati qilinadigan, oxirat savobi eng ko'p yig'iladigan, insoniyat ibodati va ziyorati uchun qurilgan ilk Uy, birinchi ma'baddir.

Qo'lumga xanjar olib, bu yurakni pora qilay.

Saning uchun, ne balo, mehnat-u alam ko'rdum,  
Raqib nizosiga boqsangki, man na chora qilay?

Kel emdi, Mashrabi oshiq, o'ziga zore qil,  
Tarahhum etmasa dilbarki, kimga nola qilay?!

\* \* \*

Da'viyi ishq etgali Majnuni benavo kerak,  
O'zini xoki po etib, darbadari gado kerak.

Shom-u sahar fig'on etib, ertani kechga qo'ymayin,  
Orifi Haq bo'lay desang, Adhami benavo kerak.

Ham jahd-u ham jadal qilib, yorning vaslini tilab,  
Tun-kechalar uyg'onibon, shom-u sahar duo kerak.

Qilmadi bir sahar tilim dunyoyi fonini talab,  
Kimki talab qilur ani, boshig'a yuz balo kerak.

Chiqtı Rasul Me'roja shab, Jabrail ergasholmadi.  
Mashrab, bu sırni bilg'ali orifi billoh kerak.

\* \* \*

Oxirat yo'li xatardur, himmati a'lo kerak,  
To lahadga kirmag'uncha «Oh, vovaylo!» kerak.

Taqdiri Allohga dast ursa kishi, dasti kuyar,  
Bandaga doim ibodat xolisan-lilloh kerak.

Zotini izlar kishiga rahnamun topmoq muhol,  
Kimki Haqni izlasa, dasti ani bolo kerak.

To Shu'ayb<sup>65</sup> dargohig'a bormay Muso yo'l topmadi,  
To sani misdinki tillo qilg'uchi Muso kerak.

Ohı sarding bo'lsa, Mashrab, oh urub Mahsharni buz,  
Mohiyi bahnı Haqiqatga o'shal daryo kerak.

\* \* \*

Olamı ruhonilarga oshno bo'lmoq kerak,  
Tark etib yo'lida jonin, mosivo bo'lmoq kerak.

Ko'zi yo'q a'mo na bilsun yuraturg'on yo'lini,  
Yo'lni bilmas omilarg'a rahnamo bo'lmoq kerak.

To'tiyo nofe' qilur ~~gar~~ ko'zdakim bo'lsa g'ubor,

<sup>65</sup> Shu'ayb alayhissalom - Madyan xalqiga yuborilgan payg'amber, Muso alayhissalomning qaynotalari. Muso alayhissalom Misrdan qochib borib, Madyanda ul zotning dargohlarida najot topganlar (qarang: Qasas surasi, 25-29-ayatlar).

Ko'tarib ko'zdin g'uborin, to'tiyo bo'lmoq kerak.

Avliyolar nisbati shuldur, agar bilsang buni:  
O'ziga dard-u, digarlarga davo bo'lmoq kerak.

Mardi Haqning suhbatiga bir zamon kirgan kishi  
Bir nafas birlan vujudi kimiyo bo'lmoq kerak.

Avliyolardek muazzam bo'layin degan kishi,  
Mashrabi sho'ridadek sohib azo bo'lmoq kerak.

\* \* \*

Xudovando, tillim og'ushtayi hamd-u sano qilg'il,  
O'zungdin o'zgani mehrin bu ko'nglumdin judo qilg'il.

Yaratting, jism-u jon berding mani bechora bandangga,  
Yurokim dardiga lutfung bilan, yo Rab, davo qilg'il.

Yigitlikni agarchi mahvi g'aflat birlan o'tkardim,  
Illoho, qomatimni yaxshilar birlan duto qilg'il.

Agar dorul-fanodin<sup>66</sup> oxirat sorig'a azm etsam,  
Charog'i nuri iyemon birla qabrimni ziyo qilg'il.

Sirotul-mustaqiyim otlig' guzargohingdin o'tkargil,

"Dorul-fano - o'tkinchi uy (o'tar dunyo).

Mani gumrohg'a, yo Rab, rahmatingni rahnamo qilg'il.

Ki zohid zuhd ilan mag'rur, bu Mashrab jurm ila ma'yus,  
Iloho, rahmatingni soyayi yavmul-jazo<sup>67</sup> qilg'il.

\* \* \*

Zikriyodek<sup>68</sup> «Hu» bilan ko'ngulni san me'mor qil,  
Bandasan, toatni az bahri Xudo bisyor qil.

Shamsi Tabriziyga qul bo'ldung, haqiqatdin gapur,  
Hamchunon Mavloyi Rumiydek<sup>69</sup> muni izhor qil.

Ahli ma'no suhbatidin ruh osoyish topar,  
Norasolar oldida harfingni san inkor qil.

Qomating xam ayladi vahmi Qiyomat hamchunin,  
To'shayi rohingni az xuni jigar tayyor qil.

Qatra rahmat haft dari do'zaxni nochiz aylagay,  
Masti g'affatlarni, yo pirim, bukun hushyor qil.

Haqni dargohiga beto'sha yetolmas, Mashrabo,

<sup>67</sup> Yavmul-jazo – qiyomat kuni, hisob-katob kuni, mukofot va jazolar beriladigan kun.

<sup>68</sup> Zikriyo – Zakariyo alayhi salomning xalq tilida ayttilishi, qavmi ul zotni arralab o'ldirgan.

<sup>69</sup> Mavloyi Rumiy (Mavloyi Rum) – Mavlono Jaloluddin Rumiy.

Har gunoh qilsang, izidin so'ngra istig'for qil.

\* \* \*

Ko'ngul dardini bir ko'ngli buzulg'an yordin so'rg'il,  
Bu ishq o'tig'a kuyganni dili afgordin so'rg'il.

Sani hajringni, ey jonon, ne til birlan bayon aylay  
Ki, har shab diydadin xunoba to'k, bedordin so'rg'il.

Banogoh mehribonidin judo bo'lgan kishi holin,  
Sahar oh-u fig'on aylab, maningdek zordin so'rg'il.

Shahidi ishq bo'lg'an oshiqi bechora ahvolin  
O'shal dam Mansuri maston osilg'an dordin so'rg'il.

Bu Mashrab qon yutub har dam to'kar xunobayı hasrat,  
Ki xo'blar ajrını Mahshar kuni Sattordin<sup>70</sup> so'rg'il.

\* \* \*

Tashna keldim, sandin izlab gavhari obi zulol,  
Pin komilsan, haqiqat bobida daryoyi hol.

Ikki olam naqdi oldingda tuyassardur saning,  
Zindalaring boshidur yo'llingda bo'lgan poymol.

<sup>70</sup> Sattor - Allah taolonning ism-sifatlardan, sırlarnı berkituvchi, ayblarnı yopuvchi ma'nosida.

Baxt qarolar podshohiman, dilimni kavlama,  
Qaddi xam bo'lgan, jafo ko'rgan o'zum monandi dol.

Xoksori ko'yi irfoning bo'lubman, rahm qil,  
Chunki daryodin judo bo'ldi – ko'karmasdur nihol.

Ikki dunyodin ko'zum yumdum saning zavqing bilan,  
Asl umidim shul erur – Mahsharda ko'rgayman jamol.

Navjuvon umrum xazon bo'ldi muhabbat dardidin,  
Yetmadim maqsudima, dog' ayladi vaqtı zavol.

Xotirimg'a himmati Adhamni kelturdum bu kun,  
Kim Xudotarsdur, anga darkor emas mol-u manol<sup>71</sup>.

Otashi ishq oldida xasdur jahannam, g'am yema,  
Yuz xatardin o'tkazur har bandani qurbi Jalol.

Ostoningga kelibman, rohi navmidiy emas,  
Yo Abdul-Qosim, mani ummat degin, dastimni ol.

Noma o'ng qo'ldin yuborgil Mashrabi sho'ridaga,  
Avval-u oxirni qilgan vaqtı Mahsharda savol.

<sup>71</sup> manol – mol-dunyo, boylik.

\* \* \*

Yer uzra ochilg'on yo'q dahr ichra saningdek gul,  
Ham obi hayot la'ling, ham huqqa ichinda mul.

Bir sarv erur bo'yung, sarv uzra ajab o'yung,  
La'lingni xayol etti gul shoxidagi bulbul.

Sha'm uchida yuzung o't, o't uzra sochingdur dud,  
Bo'y oldi jahonni but – o't uzra soching sunbul.

Axtarmu falak uzra, gavharmu tabaq uzra,  
Sargashta falak uzra sadqangga yig'ibdur pul.

Ko'nglum it erur andoq, ketmas eshikingdinkim,  
Zanjin muhabbatdin bo'ynig'a solibsan g'ul.

Man – qatra-vu san – daryo, bahrind da fano bo'lsam,  
Ne ayb, maning juzvim ko'rganda desa el kull.

Ko'k xoki rahing o'lsun, oy-kun sipahing bo'lsun,  
Haq shoh-u gadolarni mehningga qilibdur qul.

Ul bargi xazon rangi, gulg'unchada qon rangi,  
Oy-kunda samon rangi – ishqing sitamidur shul.

Tegrangda hisor o'lsun, Mashrabki sani asrab,  
Badxoh raqiblarni ko'rsa o'qubon To'rt «Qub»<sup>72</sup>.

\* \* \*

Jamoling ko'rgali keldim, ayo, ey mehribon onam,  
Maning uchun ado bo'lg'an, yurok-u bag'ni qon onam.

Xo'tan dashtiga tushtum bul falakning gardishi birlan,  
Eshitkil arzi holimni, man aytay sanga, jon onam.

Ajoyib mehribonimsan, maning oromi jonimsan,  
Murodi du jahonimsan, bihishti jovidon onam.

Mani bir jodu ko'zluk bul jahon ichra xarob etti,  
Qadi sarv-u sanavbar, qoshlari misli kamon, onam.

Boshimga tushti bul savdo, bo'lubman bulbuli shaydo,  
Shabistonu jahonda qumridek shakkafishon onam.

Bu ishq o'ti xarob etti, yurak-bag'rim kabob etti,  
Mani xoki turob etti, yuzi mohi tobon, onam.

<sup>72</sup> «To'rt qul»dan murod Qur'oni karindagi «Qul» («Ayt») so'zi bilan boshlanadigan to'rt suradir: «Qul yo ayyuhal-kofirun», «Qul huvallohu ahad», «Qul a'uvzu birobbil-falaq», «Qul a'uvzu birobbin-naas». Bu suralar mo'min kishining tegrasidagi hisori - uni o'rabi, qo'riqlab turgan qal'asidir.

Sani ko'p intizor ettim firoq o'tiga, ey Ka'bam,  
Tavofi Ka'bayı maqsuda keldim dilkashon, onam.

Iloho, afv qilg'aysan bu Mashrabning gunohini,  
Tufayli onayı zorim, g'anib-u notavon onam.

\* \* \*

Qiyomatdur agar, jonoki, man sandin judo bo'lsam,  
Xush ul davlat erur manga, firoqingdin ado bo'lsam.

Xarob-u benavodurmanki, hajringda adodurman,  
Kima aytib, kima yig'lay bu dardi, bedavo bo'lsam.

Asiri xalqayı zulfung erurman, to o'zung bilgil,  
Ziyon-u sudini bilmay, taqi man g'amzado bo'lsam.

Saning ishqingni dardi manga har darmondin ortiqdur,  
Tilim kuysun, agar, jonon, talabgori davo bo'lsam!

Muhabbat shavqida, do'stilar, yurokim tah-batah qondur,  
Nechuk oh-u navo aylay, avaldin benavo bo'lsam.

Yurokim-bag'rim o'rtandi saning dard-u firoqingdin,  
Nechuk yuz qaytaroyin, man azaldan oshno bo'lsam.

Chu qumri sarv uchun yig'lab, fido aylab bu jonimni,  
Tamomiy xonumonimdin kechib, man mosivo bo'lsam.

Hamma ushshoqi sodiqni saning ishqining xarob aylar,  
Qabul ayla, ayo dilbar, ko'yingda bir gado bo'lsam.

Falakning javridin, do'stlar, nechuk man shikva aylatman,  
Netay, naylay, birodarlarki, man baxti qaro bo'lsam?!

Nega dodimga yetmaysan, maning holimni so'rmaysan,  
Firoqingda ado bo'lg'on bu Mashrab dodxoh bo'lsam!

\* \* \*

Ki man ovvora hijron ilkidin faryodlar qilsam,  
Borib Haq oldida dasti falakdin dodlar qilsam.

Agarki dodima yetsa, chaqibon ishq chaqmoqin,  
Falakning uyiga o'tlar qo'yib, barbodlar qilsam.

Mani bir dam xalos et, ey birodar, g'ussavu g'amdin,  
Aning yodi bilan har dam ko'ngulni shodlar qilsam.

Maning holim agar ishq ahli ko'rsa, zor yig'laydur,  
Agar dard-u g'amimdin zarraye bunyodlar qilsam.

O'shalkim g'arqi daryoyi muhabbat birla Mashrabman,  
Dil-u jonim bilan har dam agar faryodlar qilsam.

\* \* \*

To adam sahrosidin baxti qaro kelturmisham,  
Nomayi a'molima yuz ming xato kelturmisham.

Qatraye kim obi rahmat manga no'sh aylar Xizr,  
Holi Musoyi kalimga man aso kelturmisham.

Dardi bedarmonga uchrabman, tabibim yo'q mani,  
Hayyi dono Zoti Bechundin shifo kelturmisham.

Sunbuli gesuyi «Val-layb»<sup>73</sup> o'qubon, ey Ahmadoo,  
El najoti ro'siyohga anbiyo kelturmisham.

Tashnalab qolgan o'shal mardi Xudodin o'rgulay,  
Motam-u afg'oni dashti Karbalo kelturmisham.

Mashrabi devona bildi bir oting Hayyi<sup>74</sup> qadim,  
Hazratingdin kecha-kunduz ming duo keltirmisham.

<sup>73</sup> «Val-layb» - Qur'onI karimning 92-surasi ilk oyati, ma'nosi: «Tunga qasam».

<sup>74</sup> Hayy (al-Hayy) - abadly tirik va hayot bo'llib, hech qachon o'lmaydigan, hayotni qamrovchi va butun hayotlarning manba'i bo'lgan Zot.

\* \* \*

Qaysi kun bo'lg'oyki, man Makkada ma'vo aylasam,  
Ka'bayı maqsudga borib, manzili jo aylasam.

Har birodarnı ko'rubon, boshidin ming o'rgulub,  
Xoki poyin surmayı bul chashmi biyno aylasam.

Ba'dazon borib Habibi Hazrati Haq yonida,  
Zohir-u botin gunohimni tavallo aylasam.

Haq ta'olo sun'ldin Arshi a'llo ustida,  
Man jamoli Hazratim rasmi tamoshо aylasam.

Bodayi vahdatni bersa soqiyi shirin kalom,  
Ikki olamni o'shal sahbog'a savdo aylasam.

Xonaqoh suhbatda o'ltursam birodarlar bilan,  
Gar Xudo tavfiq bersa, yodi Mavlo aylasam.

Qutbi olam, G'avsul-A'zam, rasmi islomim, pirim,  
Mashrabо, qilsa nazar, xizmatni barjo aylasam.

\* \* \*

Alifni dilga jo qilmoqni «Bismilloh»din o'rgandim,  
Shahid qonini to'kmakni Kalomullohdin o'rgandim.

O'shal kun hasht dari Jannatni bir bug'doyga sotmoqni,  
Tariqi bandalikni Odam-u Havvodin o'rgandim.

«Zalamno Robbanon»ni dilga jo qilmoqni har soat,  
Gunah qilmoqni man Odam Safiyullohdin o'rgandim.

Ko'zumdin qon to'kub, faryod etib man navha qilmoqni,  
Tasadduqi bo'lay, Nuhi nabiyullohdin o'rgandim.

Maqomi ko'hi Turda «**Rabbi, Ariniy**»<sup>75</sup> da'vi qilmoqni,  
Xudodin roz eshitmoqni man ul Musodin o'rgandim.

Jahon mulkida hargiz tor-u so'zan saqlamay o'tti,  
Maqomoti tajarrudni o'shal Iysodin o'rgandim.

Haqiqat minbari vasliga Iysoni shafi' etti,  
Tariqi imtihonni ruhi Armiyodin o'rgandim.

<sup>75</sup> Rabbi, Ariniy – «Rabbim, O'zingni ko'rsat, Seni bir ko'rayin», A'tof surasi, 143-oyatl (ma'nosi): «Muso Biz (Ibdot uchun) belgilagan muddatda kelganida va Rabbi unga (hotifdan, ilohiy kalom ila) so'zlaganida (Muso munojot qilib): «Yo Rabbim! Menga (O'zingni) ko'rsat, Senga qarayin», dedi. (Alloh:) «(Sen toqat qilib dunyo ko'zi bilan) Meni aslo ko'ra olmas-san. Lekin toqqa nazar sol, agar u o'z o'rniда qola olsa, sen ham Meni ko'rursan», dedi. Rabbi(ning jamoli) u toqqa tajalliy etganida uni chilpar-chin qillib yubordi va Muso behush bo'llib (yerga) yiqlidi. Hushiga kelgach: «Sen pok va munazzahsan (Ollysan! Nee'rin so'rovim uchun) Senga tavba qildim va men iymon keltinganlarning avvaliman!» – ~~dedi~~

Sulaymondek azaldin sultanat taxtig'a minmog'ni,  
Bu yo'lni Osaf ibni ruhi Barxiyodin<sup>76</sup> o'rgandim.

Ki tinmay ellik uch yil oxirating vahmidin kuydi,  
Qiyomat vahmini ul hazrati Yahyodin o'rgandim.

Tushub boshig'a motam, dog'i farzandig'a o'rtandi,  
Ko'ngul chokini, bil, ul Yusufi barnodin o'rgandim.

Baliq qornida Yunus zikri Haqni borini aytdi,  
Ko'ngul zangorini ul Yunusi donodin o'rgandim.

Tanini yetmish uch yil kirmi motam to'ma aylabdur,  
Maqomi sabrini Ayyubi baytullohdin o'rgandim.

Osaf Ibn Barxiyo - Qur'onı karımlıning Namlı surası, 38-40-oyatlarda kelgan voqeaga ishora, ma'nosi: «38. (Keyin Sulaymon o'z amridagi sardorlarga) dedi: «Ey a'yonlar! Ular men(ing huzurim)ga musulmonlar holida (taslim bo'lib) kelishidan oldin qaysi biringiz menga uning taxtini keltira olur?» 39. Jinlardan bir Ifrit (quvvatlı bir dev): «Sen maqomingdan turmasdan oldin men uni senga keltirurman. Mening bu ishga quvvatim va (bu borada o'zinga) ishonchim bor», dedi. 40. Kitob(i ilohiy)dan İlmgə ega bo'lgan kishi (vaziri Osaf ibn Barxiyo) esa: «Men uni ko'zingni yumib ochguningcha senga keltirurman!» - dedi. (Sulaymon) u (taxt)ni o'z naza-dida qaror topgan holda ko'rgach: «Bu Rabbimning fazi-u karamidandır. Men shukr qilurmanmı yoki noshukrlik qilurmanmı - meni imtihon qil-moq uchundir. Kim shukr qilsa, faqat o'zl (foydası) uchun shukr qilgan bo'lur; kimki noshukrlik qilsa, shubhasizki, mening Rabbim boy-behojatdir (hech narsaga muhtoj emasdir), benihoyat karamlidir», dedi.

Muhabbat mubtalosi hukmi ul nuri ilohiydin,  
Ko'ngul arrasining zikrini Zikriyodin<sup>77</sup> o'rgandim.

Sabo Mahshar kuni ul osiy ummatlarga homiydut,  
Haqiqat sirlini ruhi Rasulullohdin o'rgandim.

Abu Bakr-u Umar, Usmon iymonimning guvohidur,  
Azalning himmatini Haydar a'lodin<sup>78</sup> o'rgandim.

Hasan birlan Husayn Haq yo'tida jonini topshurdi,  
Ko'ngul ta'sirini, bil, nolayi Zahrodin<sup>79</sup> o'rgandim.

Kiyibon sultanat faqrin tanimg'a, mosivo bo'ldum,  
Faqirlikni Muhammad ibni Abdullohdin<sup>80</sup> o'rgandim.

Hama ayturki: Mashrab, muncha ilmi kimdin o'rganding?  
Xudo lutf ayladi, man barchani Mavlodin o'rgandim.

<sup>77</sup> Zakariyo alayhissalom - Bani Isroil payg'ambarlaridan, qavmi u zotni arralab o'dirgan va qatl vaqtida ham «Alloh, Alloh, Alloh» zikrini tark etmaganlar. Yassaviyya tariqatidagi zikri arra shundan qolgan.

<sup>78</sup> Bu o'rinda Mashrab Chahor yorlarni zikr qilmoqdalar. «Haydarri a'lo»-dan murod hazrati Alidirlar (roziyallohu anhum).

<sup>79</sup> Zahro - Fotimayi Zahro (roziyallohu anho), u zot o'g'llari hazrati Hasan va hazrati Husaynning shahid bo'lislari haqidagi xabarni eshitib, nola qilib yilg'laganlar.

<sup>80</sup> Muhammad ibn Abdulloh - hazrati Payg'ambar sollallohu alayhi va sal-lam. Ul zot: «Al-faqru faxrty» - «Faqr - yo'qlikka qanoat mening faxrimdir» deb marhamat qillganlar.

\* \* \*

Azaldin to abad, do'stlar, hamisha oh deb keldim,  
Tilimda «Rabbiyal-a'lo», yana Alloh deb keldim.

Ki san avlodı Payg'ambar, otingdur hazrati Ofoq,  
Ki navmid qo'ymag'aylarkim, ulug' dargoh deb keldim.

Azaldin manga soldi ushbu o'tni, ey musulmonlar,  
Aning uchun kuyarman, tun-u kun yuz oh deb keldim.

Hidoyat ko'rguzing, Ofoq xojam, pusht-u panohim siz,  
Adashgan, yo'lda qolganman, g'aribga roh deb keldim.

Kel, ey Mashrab, umud etgilki, afv etgay gunohingni,  
Hasan birlan Husaynim hurmati, ul shoh deb keldim.

\* \* \*

Ishqing o'tig'a kuyg'oli keldim,  
Oydek yuzungni ko'rg'oli keldim.

Savdoyi zulfung tushdi boshimg'a,  
Sandin davosin so'rg'oli keldim.

Bahringga kirdim g'avvos bo'lay deb,  
Bir durri maqsud olg'oli keldim.

Ey guluzorim, oy yuzli yorim,  
Mahvi jamoling bo'lg'oli keldim.

Qofila ketti, manzilg'a yetti,  
Man ham taraddud ko'rg'oli keldim.

Soqiy, qadahni qilg'il muhayyo,  
Vahdat mayidin ichg'oli keldim.

Rahmat eshikin Mashrabg'a ochg'il,  
Ishqing ko'yida o'lg'oli keldim.

\* \* \*

Jonon, yuzungni ko'rg'oli keldim,  
Shakkar labingni so'rg'oli keldim.

O'tdek tutoshib yondi yurokim,  
Kuya-kuya kul bo'lg'oli keldim.

Ey mohi tabon, zulfi parishon,  
Oydek yuzingni ko'rg'oli keldim.

Sham'i jamoling parvona qildi,  
O'tg'a o'zumni urg'oli keldim.

Man sori boqg'il, ey guluzorim,  
Rozi dilimni ochg'oli keldim.

Ey to'rayi husn, bandang bo'loyin,  
Eshikinga qul bo'lg'oli keldim.

Mashrabg'a tegdi kosayi davron,  
Besh kun jahonda turg'oli keldim.

\* \* \*

Avval Odam edim, hamsuhbati Havvo bo'lub keldim,  
Ki nur daryosig'a g'arqi kalomulloh bo'lub keldim.

Xalildek otashi Namrudga kirdim, kuymadim hargiz,  
Maqomoti azaldin olami bolo bo'lub keldim.

Uchunchi tiyg'i Haqqa halqumim tuttum chu Ismoil,  
Qazog'a rozi bo'ldum, chun Zabihulloh bo'lub keldim.

Vale to'rtinchı Nuhdek navhalar qildim firoqida,  
Qilib to'fon talab, pur mavji ul daryo bo'lub keldim.

Beshinchı ko'hi Turda rozi maxfiy ayladim nurdin,  
Tajalliyot ko'rdum, hazrati Muso bo'lub keldim.

Maqomi oludakim, suvrati Dovudni ham topdim,  
Qilib ohanni narm ohimg'a, man go'yo bo'lub keldim.

Maqomi yettida Maryamni qornidin safar qildim,  
O'qub oyoti Injil, ul Masihoso bo'lub keldim.

Ki emdi bizga keldi sakkizinch boz navbat chun,  
Sulaymoni azaldek taxtga mindim, shoh bo'lub keldim.

Maqomi to'qquzunda Mustafoning ruhini ko'rdum,  
Hamaga rahnamun bo'ldum, man ul dilxoh bo'lub keldim.

O'nunchi vaqt edi, topdim Abu Bakru yana Umar –  
Ki, Usmonu Ali ruhiga man hamroh bo'lub keldim.

Maqomi rozi o'n birda boqib ul Ja'fari Sodiq,  
Maqomi Boyazidg'a orifi billoh bo'lub keldim.

O'n ikki pardadinkim, man u Mansur ruhini ko'rdum,  
«Anal-Haq» aytaman, mir'oti Zotulloh bo'lub keldim.

O'n uchga yetti vaqtim, holi suratda Nasimiyan,  
Terimni so'ydilar, mashg'uli bul savdo bo'lub keldim.

Dame o'n to'rtga yetganda, bo'lub shamshir ilan tire,  
Xudodin ilm o'rgandim, yana mullo bo'lub keldim.

Kamolim yetti o'n beshga va ruhi Maylaviydurman,  
Jaloluddin bo'lubman, jumladin ogoh bo'lub keldim.

O'n olti qatla keldi barchaning toji sari, Mashrab,  
Urub surateni barham, Majnuni rasvo bo'lub keldim.

\* \* \*

Birodarlar, man ushbu kecha Majnundin nazar topdim,  
Tun o'tguncha niyoza tirlan olamdin xabar topdim.

O'shal mahvashni yod aylab, g'am-u qayg'u ziyod aylab,  
Na aqlimdin nishon ko'rdum, na hushumdin asar topdim.

Maningdek talxkom-u benasib dunyoda o'tgan yo'q,  
Shakar og'zimg'a soldim, zahri qotildin batar topdim.

Bu dahri bevafog'a hech ko'ngul bermang, ayo do'stlar,  
Ki, man foni jahonni misli abri darguzar topdim.

Vujudi ushbu olam bir kecha-kunduzdin ortiq yo'q,  
Charoki, dunyada bir shams ko'rdum, bir qamar topdim.

Nadomat ashki to'foni boshimdin chun o'tib ketti,  
Balig' qornidag'i Yunus kabi bahr ichra bar topdim.

Nigorimdin vafo, na do'stlardin daf'i g'am ko'rdum,  
Ki har kimdin umidi manfaat qildim, zarar topdim.

Netay, Mashrab, bu yo'lida manga hech kim bo'lmadi rahbar,  
Adashdim, yo'l yiturdum, na payom-u, na xabar topdim.

\* \* \*

Dunyo sarig'a bir kelbon, g'amzada kettim,  
Bir lahma dam olmay turubon, lahzada kettim.

Bir mushfiqi hamroz jahon ichra topolmay,  
Hasrat o'tida kuydim-u motamzada kettim.

Surmay bu qaro yuzni borib ravzalarig'a,  
Armonda yurib, lek buzug' kulbada kettim.

Har jon kelar-u ketgusidir, bilsam oni ham,  
Ketmascha yurubon, yana g'urbatzada kettim.

Horis bo'libon dunyoda yurdi necha gumroh,  
Uryon kelbon munda, yana arbada kettim.

G'ofil kishilar kechayu kunduz tilagay mol,  
Dunyo ila dinni sotibon, g'amzada kettim.

To yorini xayol ayladi Mashrab, ko'zin ochti,  
Yuz dard-u alam birlaki, mehnatzada kettim.

\* \* \*

Ketti qaror-u, sabr-u hush, qolmadı tanda toqatim,  
Tun-kun ila ziyodadur mehnat-u, dard-u ofatim.

Oh urubon qayon ketay, tog'-u tosha boshim uray,  
Boshima ming balo-yu g'am – kunda turur alomatim.

Zarracha qolmadı yurak, kuydi-yu bo'ldi ham ado,  
Ko'zdagi yosh-u rangi zard – ushbu erur halovatim.

Hoji-yu muftini yig'ib, omi-yu shayx-u, ham murid,  
Barchasidan yuz o'gurub, ishqqi erur malomatim.

Barchaga – mol-u johini, ne'mat-u mulk-u joyini,  
Manga beribdur ohini, ushbu turur salobatim.

Ishq emas balo ekan, mehnat-u, dard-u oh ekan,  
Mashrabi benavo ekan, kun-kundin ortar ofatim.

\* \* \*

To olami zohirg'a kelib man guzar ettim,  
Tark ayladimu jumlanı qat'i nazar ettim.

Ahvoli dilim aytg'ali bir mahrame topmay,  
Zulmingni qarindosh-u g'amningi padar ettim.

Bir qushki cho'loq san sari parvoz etayin deb,  
Hajr o'qlarini jonga suqub, bol-u par ettim.

Dushmanga chu harb etmak uchun chora topolmay,  
Do'stim qo'llini tuttim-u tiyg'-u tabar ettim.

G'am shomida qalbimga guzor etti xayoling,  
Ko'z yoshi – yurak qoni bilan mohazar ettim.

Savdoyi sari zulfiq uchun necha mahaldur,  
Jon kishvarini buzdim-u, zer-u zabar ettim.

Bir martabada turmas emish shoh ila darvish,  
Bas, jandani kiydim, o'zimi darbadar ettim.

Ko'tahnazar el bilmasa deb xasta bu Mashrab,  
Ming ma'nini bir nukta bilan muxtasar ettim.

\* \* \*

Netgum, sanamo, ishqing o'tida vatan ettim,  
Har tori mo'yim sham' kabi shu'lazan ettim.

Qon yig'ladi ko'z, qoldi tanim qon Arasinda,  
Har qatrayi tan tog'ida la'li Yaman ettim.

G'am tog'in alam teshasi birlan qozadurman,  
O'lguncha, xayolingni uyub Ko'hkan ettim.

Jannat bilan Kavsar suvini og'zima olmay,  
La'ling g'ami zahr erdiki, shahdi dahan ettim.

O'tlar tutoshur gar nafas ursam hama jong'a,  
Ishq ahlig'a o'tlig' yurakimni chaman ettim.

Sayd o'lg'usi har kim kelur oldimg'a, qutulmas,  
Nevchunki, ko'ngil sho'lsi birlan rasan ettim.

Sayr ayladi ul gulshani ishq ichra navolar,  
Har bulbul-u to'ti edi, zog'-u zag'an ettim.

Mashrab tanining zaxmlari bo'ldi gulafshon,  
O'ldum g'amu ishqingda chu guldin kafan ettim.

\* \* \*

Dil dashtida g'am ohularig'a vatan ettim,  
G'amzang o'qi to lolalar ochti, chaman ettim.

Ishq ahli maning soni kelurg'a bu erur yo'l,  
Har yerda tarab gullari erdi, vatan ettim.

Nayson kabi ko'zdin yog'adur ashki ravonim,  
Sadqangga yurak qonini la'li Yaman ettim.

Mehring qushi ko'nglim qo'lidan ajramasun deb,  
Jon rishtasi birlan oyog'idan rasan ettim.

Jonimg'a nigohing o'qidin gullar ochilsa,  
Sayrimg'a ani nastaran-u yosuman ettim.

Rasvolig' o'tin balki o'zimg'a yoqadurman,  
Jismimg'a samandar kabi o't pirahan ettim.

Mashrab, bu so'zing topdi saning bo'yish shahodat,  
Qonlig' tanima ishq libosin kafan ettim.

\* \* \*

Jumla xalq toatdadur, man, bas, xato qildim, Karim,  
Neklarning xokini diydamga jo qildim, Karim.

Bir duo aylang, manga hojatbaror bo'lg'aymukin,  
Dilsiyolarni o'zimga oshno qildim, Karim.

Obi rahmat yoki bo'lgay yoki bo'lmas har taraf,  
Ro'siyohlik birlan yuzumni qaro qildim, Karim.

San agar rahmat bilan Mashrab gunohin yopmasang,  
Ro'zi Mahsharda bu joninga jafo qildim, Karim.

\* \* \*

Adam iqlimidin keldim, tamoshoyi jahon ko'rdum,  
Ko'zum g'ayrat bilan ochtim, hama ayni ayon ko'rdum.

Yurub bodi sabodek har taraf olamda sargardon,  
Chamanda bulbul-u goh yosuman, ham arg'uvon ko'rdum.

Xudoning qudrati ko'ptur, jahonda har taraf boqsam,  
Birovni ham gado, ham birni man shohi shahon ko'rdum.

G'ururi davlati shohiy o'tar chun barqi bir soat,  
Faqiri benavolig'ni ajoyib, xo'b amon ko'rdum.

Hayotningi g'animat bil necha kun ushbu olamda –  
Ki, vaqt navbahor o'tti, yana vaqti xazon ko'rdum.

Nashot-u ayshi olamni baqosi yo'q erur aslo,  
Birovni hasrat-u g'amda, birovni shodmon ko'rdum.

Agar Jannat tilar bo'lsang saharlik ista, ey Mashrab,  
Saharxezning makonini Bihishti jovidon ko'rdum.

\* \* \*

Shohi jahonim, ishqingda o'ldum,  
Oromi jonim, ishqingda o'ldum.

Kimdin o'rganding muncha jafoni,  
Ey nuktadonim, ishqingda o'ldum.

To «**qoba qavsayn**»<sup>81</sup> sharhi qoshingdir,  
Abro' kamonim, ishqingda o'ldum.

Qaqnusga o'xshab nola qilurman,  
O'rtandi jonim, ishqingda o'ldum.

Bir rahm qilg'il, holimni so'rg'il,  
Nomehribonim, ishqingda o'ldum.

<sup>81</sup> Qoba qavsayn – ikki yoy demak bo'llib, Najm surasi, 9-10-oyatlariga ishora: mazmuni: 9-10. «O'rtadagi masofa ikki yoy miqdoricha, hatto yanada yaqinroq bo'ldi, shu asnoda (Allah) vahy etgan narsani bandasiga vahy qildi».

Yorim, sanga man chokar bo'loyin,  
Sohibqironim, ishqingda o'lдум.

Mashrabga bir boq, jon labg'a yetti,  
Ruhı ravonim, ishqingda o'lдум.

\* \* \*

Ko'rdum yuzungni devona bo'lдум,  
Aql-u hushumdin begona bo'lдум.

Tortib jafolar o'lsam ko'yингда,  
Tonmasman aslo – mardona bo'lдум.

Kavsar sharobi yodimga kelmas,  
La'li labingdan mastona bo'lдум.

Yumdum ko'zumni sandin bo'lakdin,  
Kechtum baridan, begona bo'lдум.

Ko'rdum tushumda sham'i jamoling,  
Kuydum charx urub parvona bo'lдум.

Ishqing mayig'a pur bo'ldi jismim,  
Ham soqi-yu ham paymona bo'lдум.

Bir qatra erdim, cho'mdum dengizga,  
Kirdim sadafg'a – durdon a bo'ldum.

Kuydurmasa o't, bo'lmas yog'och cho'g',  
Ishq o'ti birlan hamxona bo'ldum.

Bo'ldum fano man tufrog' ichinda,  
Bir dona erdim, ming dona bo'ldum.

Ul yuz o'tida bud bo'ldi nobud,  
Obod edim man, vayrona bo'ldum.

Kuymas dedilar ma'murayi ganj,  
Ishqing o'tida so'zona bo'ldum.

Tegdi ko'zingdan jonimg'a ming o'q,  
Dasht erdim avval, gulxona bo'ldum.

Bir necha yildur yordin judoman,  
Topmay man oni hayrona bo'ldum.

Sangi malomat tegdi boshimg'a,  
Yaxshi-yomong'a afsona bo'ldum.

Mashrabg'a may sun mayxona ichra,  
Kechtim hamadin, tindona bo'ldum.

\* \* \*

Dunyoni pushtipo urub, Adhami benavo o'zum,  
Avji falakda yurugon kavkabi purziyo o'zum.

Banda- umam<sup>82</sup>, umam o'zum, na minnat o'zgadir taqi,  
Yo'qtur tabiba hojatim, dardima ham davo o'zum.

Man tilabon didorini ko'hi Tur uzra dam-badam,  
Musodayin aso olib tunqotari<sup>83</sup> Xudo o'zum.

Kufr ila din mazhabida hech kima yo'qtur nisbatim,  
Ham sanam-u, ham oshiq-u, ham shah-u, ham gado o'zum.

Majnuni benavo demang, layl-u nahorda bo'zlasam,  
Laylisini so'rog'lag'an Majnuni benavo o'zum.

Hur-u, Bihisht-u Kavsaring – ko'zima bir quruq rabot,  
Vaslinga yo'l topay desam, rahra-vu rahnamo o'zum.

Asli nasabim so'rasang bir qora qulni o'g'liman,  
Bahri muhabbat ichida gavhari bebah o'zum.

<sup>82</sup> Umam - 1) ummatlar. 2) bir tilda so'zlashuvchi insonlar. 3) b1r payg'am-barga tobe kishilar. 4) Rahimbobo Mashrabning taxalluslaridan b1ri.

<sup>83</sup> Tunqotar - podshoh qarorgohining tungi qorovulli, tungi qo'riqchi.

Mashrabi Mahdiy<sup>84</sup> aytadur: olami bevafo aro  
Bir buti bebadal uchun oshiqi mubtalo o'zum.

\* \* \*

Masti jomi vahdatam, jono, sanga man zor o'zum,  
Shoribi xamri «Alast»am,<sup>85</sup> oshiqi diydor o'zum.

«Rabbi, Ariniy»<sup>86</sup> dedi Musoyi Kalim, hech yetmadi,  
Ishqidin nolon bo'lubon kechalar bedor o'zum.

Ul Xalilullohni soldi o'ty'a Namrudi la'in,  
Sayrar erdim ul zamon bulbuli afgor o'zum.

<sup>84</sup> Mahdiy - Mashrabning Pir Ofoq Xuja Eshon qo'yib bergen laqablaridan bo'llib, «hidoyat qilingan, hidoyat topgan, hidoyatga erishgan, to'g'ri yo'lga sazovor bo'lgan» degan ma'nodadir. Qiyomat yaqinlashganda chiqishi haq bo'lgan zot ham Mahdiy deyiladi.

<sup>85</sup> «Shoribi xamri «Alast» - «Alast», ya'ni «Alastu birobbikum?» («Men emasmanml sizlarning Rabbingiz?») mayining ichuvchisiman. A'rof surasi, 172-oyatiga ishora: mazmuni: «(Ey Rasulim!) Vaqtida Rabbingiz Odam farzandlarining pushti kamarlardan (o'tgan va bo'lajak) surriyotlarini (zarralar hollida) chiqardi va ularni o'z-o'zlariga guvoh qildi: «Men sizlarning Rabbingiz emasmanml?» (dedi). Ular: «Ha, (Sen Rabbimizsan)! Biz guvoh bo'ldik», dedilar. (Bu esa dunyoda kufrga ketib) qiyomat kunida: «Biz bundan bexabar edlik» demasliklarining uchundir».

<sup>86</sup> «Rabbi, Ariniy» - Menga (O'zingni) ko'rsat; A'rof surasi, 143-oyatiga ishorat; mazmuni: «Muso Biz (ibodat uchun) belgilagan muddatda kelganida va Rabbi unga (hotifdan, tloqty kalom tla) so'zlaganida (Muso munojot qilib): «Yo Rabbim! Menga (O'zingni) ko'rsat, Senga qarayin», dedi. (Allah:) «(Sen toqat qilib dunyo ko'zi bilan) Meni aslo ko'ra olmassan. Lenkin toqqa nazar sol, agar u o'z o'rnilda qola olsa, sen ham Meni ko'rursan», dedi. Rabbi(ning jamoli) u toqqa tajalliy etganida uni chilparchin qilib yubordi va Muso behush bo'llib (yerga) yiqildi. Hushiga kelgach: «Sen pok va munazzahsan (Ollisan! Noo'tin so'rovim uchun) Senga tavba qildim va men lymon keltinganlarning avvaliman!» - dedi».

Yusufi zindonig'a bo'ldi tuyassar toj-u taxt,  
Hasratida misli Ya'qub diydasi xunbor o'zum.

Yetti g'abrodi<sup>\*</sup> o'tub, to'qqiz falakdin ham taqi,  
Qurbi Haqni ko'zlagan ul Ahmadi Muxtor o'zum.

Birlilingga man sig'indim, yo Ahad, Sandin madad,  
Mashrab aytur; yo Illoho, batchadin bezor o'zum.

\* \* \*

Ishq vodisidin bir kecha man hay-halab o'ttum,  
Monandi nayiston gulig'a o't qalab o'ttum.

Ofoqni bir lahzada kezdim, na ajabdur,  
Mino tog'idin akka sifat hakkalab o'ttum.

Ottim fashi dastorini devonalig' aylab,  
Parvona sifat jonimi o'tqa qalab o'ttum.

Bildimki vafosi yo'q ekan ushbu jahonni,  
Mardona bo'lub, balki, etak siltalab o'ttum.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,  
«Borg'il narib» deb ketig'a bir shattalab o'ttum.

\* Yetti g'abro - yetti qavat yer.

Bildimki oni dushmani makkorayi ayyor,  
«Lo»<sup>88</sup> tırnog'i birlan yuzini tırmalab o'ttum.

Mardonı Xudo dediki: «Dunyo mayi achchig»,  
Achchig'ligini bilmak uchun bir yalab o'ttum.

Nafs kofiri birlan tun-u kun qildim urushni,  
«Tanho»<sup>89</sup> qılıchi birlan urub, qiymalab o'ttum.

Xomush pichog'in har dam oning bo'g'zig'a qo'ydum,  
Cho'g' nayzasi birlan ko'zini nayzalab o'ttum.

Devonayı Mashrab, bu so'zung dardga davodur,  
Oshiq elining ko'nglig'a bir o't qalab o'ttum.

\* \* \*

Saning vasling tilab dunyoga bir «sohib azo» keldim,  
G'amimgni dilga jo aylab, alamga oshno keldim.

Agarchi ko'ngul oldurdim, ko'ngulni uzmadim andin,  
Sabab buldur: nekular diydasiga to'tyo keldim.

<sup>88</sup> Lo - Lo iloha illalloh, demakdır.

<sup>89</sup> «Tanho» qılıchi - Ankabut surası, 45-oyatlıdagı «Innas-solata tanho 'anil fahshoi val-munkar» - «Albatta, namoz fahsh ishlər və yomonlıkdardan qaytarur» hukmiga ishorat. Bu o'rinda «Namoz qılıchi» ma'nosudadır.

G'aming boshimg'a tushdi, bir ajoyib sho'rishi savdo,  
Azal kundin netay, naylayki, man baxti qaro keldim.

Ki sansiz ikki dunyoda tirkilikni netay, jonon,  
Karamlik podshohimsan, yo'lunga bir gado keldim.

Oqiz rahmatni daryosin g'ariblar ustiga, yo Rab,  
Agarchi yo'lunga sar to qadam g'arqi gunoh keldim.

Kinb daryoyi rahmatga, mudom g'arqob edi jonim,  
Haqiqat bahrida qolgan duri qiymat baho keldim.

Qanoat shahriga kirdim, tamoshoyi jahon qildim,  
Vujudimni urub barham, bu olamdin pano keldim.

Ratiq har kim bilan bo'ldum, savoli oxirat qildim,  
Baharnav'ida bo'lsam, ummati ul Mustafo keldim.

Ilohiy, Mashrabingni yaxshi insonlarga hamdam qil,  
Gadolik ixtiyor ettim yo'lunga, podsho keldim.

\* \* \*

Firoqing o'tida, ey guluzor, yig'larman,  
Tilab visolingi tunlar zor-zor yig'larman.

Netay, na chora qilay, vaslingga yetolmasman,  
Firoq dashtida chu abri navbahor yig'larman.

Gahi tushumda ko'rub gul yuzung Zulayhodek,  
Dilimni pora qilib, lolazor yig'larman.

G'arib-u bekas-u bechora hamdamim yo'qdur,  
Tushub bul g'amzada ko'nglumg'a yor, yig'larman.

Qani musohibi hamdam, qani qadrdonlar,  
Qani muhib-u, qani do'st-yor, yig'larman.

So'rog'ladim bu jahon mulkini saropoyin,  
Topilmadiki saningdek nigor, yig'larman.

Qayon boray, tugatay kimga aytibon dardim,  
Yurokim o'rtanibon, pursharor yig'larman.

Tavakkul ayla Xudo qismatig'a, ey Mashrab,  
Tanimda jon boricha intizor yig'larman.

\* \* \*

Dargohinga bir ojizi afgor kelibman,  
Arzi dilimi aytgali chun zor kelibman.

Yo'qdur mani ilkimda sanga tuhfayi loyiq,  
Juz zilli gunah, el ichida xor kelibman.

Rad qilma, qabul aylaki, sharmandalig'imdin,  
Rasvoyi jahon, ko'cha-vu bozor kelibman.

Bozori jahon ichra kelib shahn adamdin,  
Jon naqdi bilan sanga xaridor kelibman.

Lutf birla karam ayla-vu dardimg'a davo qil,  
Darmon tilabon man sanga bermor kelibman.

Zorivi tavallo qiladur Mashrabi miskin,  
Och pardanikim, tolibi diydor kelibman.

\* \* \*

Tinmayin yurdum bu g'am dashtida hayronlik bilan,  
Oxir umrum o'tti, sad afsus, nodonlik bilan.

Bir guli shodim ochilmay baxt guliston aro,  
Hayf, umrum oqibat o'tti parishonlik bilan.

Baski ilmi hol-u qolning yo'lida qilsang amal,  
Ushbu mullolar bari buxl-u havodorlik bilan.

Necha mullo ilm o'qub, rohi shayotinni topib,  
Chun ribo-vu rishvani yerlar xushdorlik bilan.

Rost so'z aytsang alarga zarra qilmaslar qabul,  
«Kufr ayttin!» deb urarlar necha ozorlik bilan.

Mashrab, har bir so'zungdur gavhari qimmatbaho,  
Aytma bul so'zlarni har nokasga nodonlik bilan.

\* \* \*

Bu olamda o'zumdek siynasi afgor topmasman –  
Ki, rozim aytg'ali bir mahrami asror topmasman.

Firoqing dashtida izlab mudomo zor-u sargardon,  
Labing zilolidin paymonayi sarshor topmasman.

G'amu ishqing mani oxir yurokim ayladi sad chok,  
Visoling zavqini bir lahzaye, bir bor topmasman.

Tamomi rozi dilimni demakka izladim mahram,  
Bu sahroyi Xo'tan kezib, dili hushyor topmasman.

Biyobon bulbulidek, Mashrab, hech yo'qtur orotum,  
Qo'nay desam chamanda bir guli bexor topmasman.

\*\*\*

O'lduroyin dermusan yo kuyduroyin dermusan?  
Boshima yuz ming balolar kelturoyin dermusan?

Ko'zlarining jallod etib, mujgonlaring bedod etib,  
Kashmuri til birla holimni so'royin dermusan?

Yuz turman bog'i jahon yuzini bir-bir ko'rsatib,  
Ka'bayı ko'yingga oxir borduroyin dermusan?

Osmondin yerga tashlab, xalq aro rasvo qilib,  
Qush kabi bol-u parimni yulduroyin dermusan?

Shohbozi lomakon ko'ngul qushini ovlabon,  
Tabl urub, dolboy<sup>90</sup> qoqibon qo'nduroyin dermusan?

Man shahidi ishqman, o'lsam kafang'a chulg'amang,  
Ul qizil qon birla qo'ynum to'lduroyin dermusan?

Mansuri Hallojdek ichib sharobi an-tahur,  
Sudratib dor ostiga olib boroyin dermusan?

Ishq aro dard-u balolarniki solding boshima,  
Mashtabingni ishq o'tida kuyduroyin dermusan?

<sup>90</sup> Dolboy - ovchi ov qushini qo'lga keltirish uchun unga ko'rsatib chaql-radigan go'sht, dolvoy.

\* \* \*

Ey maning nozik nihol oromi jonim, qaydasan?  
Bul ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim qaydasan?

Necha yillar bul ko'ngul mushtoq erur diydoringa,  
O'rgulay, ey dilbari shirin zabonim, qaydasan?

Ayrilib man yordin, bir necha kun bo'ldum judo,  
Axtarib keldim sani, sarvi ravanim, qaydasan?

Hol-u zorim ko'p yomondur, kelmasang bir yo'l so'tab,  
Ey maning xush mehribonim – yori jonim, qaydasan?

Ko'zlarim giryon bo'lub, qoldim bu g'am sahrosida,  
Hasratingda chiqti bul oh-u fig'onim, qaydasan?

Tashnalabdur Mashrabing, bo'ldi yurak-bag'i kabob,  
Furqatingda chashmayi obi ravanim, qaydasan?

\* \* \*

Ey gul badanim, gul yuzunga banda bo'loyin,  
Qurban ni shakarlablari purxanda bo'loyin.

Ruxsoni gulungdin san agar parda ko'tarsang,  
Ko'nglum ochilib, bulbuli nolanda bo'loyin.

Mastona ko'zung nogah agar yodima tushsa,  
«Hu-hu» qushidek kechalar go'yanda bo'lovin.

Kuydurdi mani bir boqishing, dilbari ra'no,  
Hayrat bila man oshiqi sharmanda bo'loyin.

Pardangni olib man sari gar birgina boqsang,  
Ul dam mani motamzada dar xanda bo'loyin.

Bul Mashrabi bechoraga har kez nazar etsang,  
Man bandavi ul nargisi purxanda bo'loyin.

\* \* \*

Yig'lasam, vaqtி duo bo'lg'aymukin?  
Ko'z yoshim dardga davo bo'lg'aymukin?

Bodavi ishq-u muhabbatdin ichib,  
Shavkati dunyo judo bo'lg'aymukin?

Yig'lamoqdin o'zga imkon qolmadi,  
Yordin manga nido bo'lg'aymukin?

Qaysi bir dardimni aytay, do'stilar,  
O'lmayin dardim ado bo'lg'aymukin?

Mashrab, kuydurdi yot, holim xarob,  
Arz etarg'a dodxo bo'lg'aymukin?

\* \* \*

Yorning ko'yida o'lg'an bormukin?  
Bir o'lub, qayta tirlg'an bormukin?

Yorning vaslini izlab, charx urub,  
Termulub, yo'llarda qolq'an bormukin?

Qatl qilmoqg'a hukm etg'onida,  
Yolborib bo'ynini sung'an bormukin?

Shohbozi lomakon – sultoni ishq,  
Tabl urub dolboyg'a qo'ng'an bormukin?

Necha yil Ofoq Xojam xizmatida,  
Shul Xo'tan dashtida yurg'an bormukin?

Man kabi tarso-vu rasvolar bo'lub,  
Bo'ynig'a zunnor solg'an bormukin?

Tongla Mahsharda yig'ilsa jumla xalq,  
Oh urub Mahsharni buzg'an bormukin?

Kecha-kunduz zor birlan yig'labon,  
Ko'z yoshi Jayhuncha oqg'an bormukin?

Dod etar Mashrab Xo'tan sahrosida,  
Bir zamon dodig'a yetg'an bormukin?

\* \* \*

Mandin salome ba so'yi jonon,  
Ey bod, yetkur arzi g'aribon.

Ham dardmandam, bexonumonam,  
Jono, tu budi dardingga darmon.

Harchand mohi qurbon kelodur,  
Har dam qilurman jonimni qurbon.

Ey do'st, tu rafti, to diyda ro'yat,  
Yolg'uz qolibman dar shahri hijron.

Az duriyi tu namonda sabram,  
Emdi ketarman taxi Sulaymon.

Bechora Mashrab kuydi g'amingda,  
Monandi zulfat holim parishon.

\* \* \*

**Ay (ا)** – alifdek qomatindin ibtido qildim bukun,

**Be (ب)** – baloyi dog'i darding dilga jo qildim bukun.

**Te (ت)** – tilovat qilg'ay erdim oyati ruxsoringi,

**Se (س)** – savobi xatmi Qur'on intiho qildim bukun.

**Jim (ج)** – jamolingni ko'ray deb keldim, ey shohi jahon,

**He (ح)** – hayotim boricha man iltijo qildim bukun.

**Xe (خ)** – xaloyiq ichra xush xulq-u nekulik sandadur,

**Dol (د)** – dilni olg'uchig'a oshno qildim bukun.

**Zol (ز)** – zoil bo'lmasun deb har zamon mehring saning,

**Re (ر)** – raboting ichra ta'miri vafo qildim bukun.

**Ze (ڙ)** – zulfung shomidin yig'lab yurub shom-u sahar,

**Sin (سـ)** – selobi sirishkimni raho qildim bukun.

**Shin (شـ)** – shakarlig' lablaringdin mehribonlig' ko'rmadim,

**Sod (صـ)** – sabrim qolmadi, oh-u navo qildim bukun.

**Zod (ضـ)** – zoye'lig' bilan umrum o'todur oqibat,

**To (طـ)** – tole'sizlig'imdin ko'p xato qildim bukun.

**Zo** (زو) – zolim ko‘zlarining g‘amzasini qildi xarob,

**Ayn** (ع) – aziz jondin kechib, joni fido qildim bukun.

**G‘ayn** (غ) – g‘ariblarga tarahhum qilg‘il, ey sultoni husn,

**Fe** (ف) – farog‘at birlan arzimni ado qildim bukun.

**Qof** (ق) – qurbat vaslidin bo‘ldi madadkorim Xudo,

**Gof** (گ) – gulzorida ayni muddao qildim bukun.

**Lom** (ل) – labing – kavsar, tishing – gavhar, xati la’bing o‘qub,

**Mim** (م) – mehrobi qoshingga iqudo qildim bukun.

**Nun** (ن) – na bo‘lg‘ay birgina ko‘rsam jamoling, ey parti,

**Vov** (و) – va’da, dilbarim, ko‘ksumga jo qildim bukun.

**He** (ه) – hazil ermas kishi dog‘ini pinhon aylasa,

**Lom-alif** (لـ) – lola sifat choki qabo qildim bukun.

**Yo** (ي) – yorim, dilbarimg‘a dudi ohim sardini,

**Hamza sokin** (ء) aylabon so‘vi samo qildim bukun.

Pardavi ismatda saqla Mashrabi bechorani,

Dilrabo nomahramimni oshno qildim bukun.

\* \* \*

Xojalig' oson erur, mardi Xudo bo'lmoq qiyin,  
Haq Taoloning O'zig'a oshno bo'lmoq qiyin.

Pirga qo'l berdim dema, kel, san dilingni sof qil,  
Mahzi zohir surat ila begunoh bo'lmoq qiyin.

Soch-saqoling oqarib, chun eshakingning yolidek,  
Emdi pirlig' keldi, mundog' podsho bo'lmoq qiyin.

Ba'zilar mo'min bo'lub ummatlig' lofini urar,  
Lek masti borgohi Mustafo bo'lmoq qiyin.

Tashla misvok-u, fash-u dastorni, Mashrab, bukun,  
Dilda darding bo'lmasa, yodi Xudo bo'lmoq qiyin.

\* \* \*

Rahravonlar kettilar, man munda tanho boraman,  
Ruhi jumla anbiyoga mag'firatxoh boraman.

Ko'p gunoh qildim, yurubman payravi nafsi havo,  
Bir Xudodin qo'rqushumdan Ka'batulloh boraman.

Yaxshilar birlan yurub, man nega toat qilmadim,  
Naylayin, foni yahondin dasti kutoh boraman.

Oftobi du jahondin bahra olmay zartaye,  
Bu Lahabdek xushk lab az peshi daryo boraman.

Tashnalik odat qilib ol ul Nabiy avlodidin,  
Man umid birlan «**Sharoban an-tahuro**»<sup>91</sup> botaman.

Tiyg'i uzlat birla Fir'avn farqini barbod etib,  
«**Rabbi, Ariniy**»<sup>92</sup> deb Musodek Turi Sino boraman.

Obro'yi du jahon yaxshi amaldur, Mashrabo,  
Man hamon dasti tihiy oxiri dunyo boraman.

\* \* \*

Xojatim bor noravo, man yig'lamay kim yig'lasun?  
Dilda dardim bedavo, man yig'lamay kim yig'lasun?

Bul sababdin dod etarman Xoliqim dargohig'a,  
Yetmasa dodimng'a Shoh, man yig'lamay kim yig'lasun.

Zulmati motamda qoldim bul xatarlik yo'l aro,  
Bekas-u berahnamo, man yig'lamay kim yig'lasun?

<sup>91</sup> Aslida «sharoban tahuro»; Inson surasi, 21-oyatdan: «Va saqohum Robbuhum sharoban-tahuro»; ma'nosi: «Rabbillari ularga behad pok bir (oxirat) sharob(i)ni ichirur».

<sup>92</sup> A'rof surasi, 143-oyatdan: «Rabbi, Arinly anzur ilayka»; ma'nosi: (Muso munajot qilib): «Yo Rabbim! Menga (O'zIngni) ko'rsat, Senga qarayin», dedi.

Vasvas aylabdur la'in Ofoq Xojam mahbubini,  
Qilmasam andin judo, man yig'lamay kim yig'lasun?

Toshkand borib, Azozil bitla qilg'um man masof<sup>93</sup>,  
Bermasa yoriy Xudo, man yig'lamay kim yig'lasun?

Man duoyi xayr qildim, rahbarim amr ettilar,  
Qilmasa Haq mustajob, man yig'lamay kim yig'lasun?

Yetmish yillik toat-u, xayr-u saxovatlar bilan,  
Ketsa mundin ro'siyo, man yig'lamay kim yig'lasun?

Gar umid birlan kelib, ketsa bu Mashrab noumid,  
Bo'lmasa mushkulkusho, man yig'lamay kim yig'lasun?

\* \* \*

Ey kasal, boshingni ur – yoningda Luqmon ketmasun,  
Hech kim mandek bu kun choki giribon ketmasun.

Onqadar zikrig'a moyil bo'l, agar chin bandasan,  
Xonayi ko'ngulni tang tutma, bu mehmon ketmasun.

Marg osondur bu yo'lda, bandalik qilmoq qiyin,  
Ketsa Jon ketsun, vale mo'mindan iymon ketmasun.

<sup>93</sup> Masof – Jang, urush.

Yo'lda qolsa, ko'za sinsa, arzaniga arzimas,  
Hech kimini ko'zasi dar zaxmi xumdon ketmasun.

Bandaning aybini kim qildi, Xudo qahr aylagay,  
Hech kishi dunyodin ammo g'arqi isyon ketmasun.

Avvali mo'min kelib, bir lak muridg'a qo'l berib,  
Oxiri chu Barsiso hamrohi shayton ketmasun.

Barcha ish oson erur, Mashrabki, mo'minlik qiyin,  
Beimon hech kim bu dunyodin go'riston ketmasun.

\* \* \*

Bouni sho'ridalarni kimiyo qil, ey Xudo,  
Ko'zda yoshini duri qimmatbaho qil, ey Xudo.

Himmate bergilki, chun yodingni man doim qilay,  
Yo'l adashgan bandalarni oshno qil, ey Xudo.

San o'zung bandam debon boqg'il – karam, lutf aylabon,  
Nafsi sarkashdin bu bandangni judo qil, ey Xudo.

Bosh ko'tarmas hujrayi torik – lahaddin ul zamон,  
Bandalarni hamrahi ul Mustafo qil, ey Xudo.

Mashrabi sho'rida keldi bosh urub dargohinga,  
Yo'lda qolg'on bandalarni avliyo qil, ey Xudo.

\* \* \*

Ey falak, qilding mani ul mehrubonimdin judo,  
Bulbuli sho'rida yanglig' gulsitonimdin judo.

Naylayin, qilding mani oxir g'arib-u benavo,  
Mubtaloyi g'am qilib, ko'ksumda jonimdin judo.

Qumri yanglig' bandalik tavqini bo'ynumg'a solib,  
Termulub hayron edim, sarvi ravanimdin judo.

Oh urub qon yig'lasam, ayb aylamang, ey do'stilar,  
Man bo'lubman to'tiyi shirin zabonimdin judo.

Ko'h ba ko'h, sahro ba sahro, Mashrabo, yurmoq nadur,  
Chug'zi bevayronadurman, oshyonimdin judo.

\* \* \*

Xush qoling, man emdi ketdim, ey yoronlar, alvido!  
Boshima tushdi g'ariblik, orifonlar, alvido!

Bo'lmag'ay erdi avalda koshki ayyomi ishq,  
Dog'i hijron o'rtadi, ey nuktadonlar, alvido!

Keldi ayyomi bahor-u sabza bo'ldi yer yuzi,  
Etti paydo loladek dog'i nihonlar, alvido!

Gar falak kuydursa mundog' necha kunlar aylanib,  
Bul jahonda qolmag'ay nom-u nishonlar, alvido!

Nuri diydam, quvvati jon-u dilimsiz, do'stlarim,  
Yig'lamoqdin ko'zlanmdin oqtı qonlar, alvido!

Har na bo'lsa, Mashrabi bechoradin aylang bihil,<sup>24</sup>  
Xush kalomi bulbuli bog'i jahonlar, alvido!

\* \* \*

Ey sabo, mandin degil sarvi ravonimg'a duo,  
Gulshani vaslig'a borsang, mehrubonimg'a duo.

Qomatim nundek bo'lubtur dog'i hijroni bilan,  
Kuydurub a'zoyi borim, dilsitonimg'a duo.

G'unchadek labdin takallum aylabon jonim olur,  
So'zlanı durru guhar shirin zabonimg'a duo.

Naqdi jonim xirmanin ishq ila toroj aylabon,  
Man hazin yuz shukr etib, ul rozdonimg'a duo.

<sup>24</sup> Bihil - kechirish, afv etish, bag'ishlash.

Kor-u borim doimo g'am birla, Mashrab, muttasil,  
Mushkul ishlarni yechar davlatnishonimg'a duo.

\* \* \*

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,  
Bu ishq sIRRIN bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishuga ishq o'tidin zarrayi tushsa, bo'lur giryon,  
Bo'lur besabr-u betoqat, yurak-bag'ri hamon o'rtar.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard birlan bo'lub hayron,  
G'amim boshqa, alam boshqa, yurakimni nihon o'rtar.

Mani bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,  
«Nigorol» deb otung aytsam ki, shavqingdin zabon o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, saning vasfing bayon aylay,  
Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni chunon o'rtar.

Na qattiq kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo'lmoq,  
Maning ohim o'tig'a bul zamin-u osmon o'rtar.

Yurakda dard-u g'am qat-qat, ki manda qolmadi toqat,  
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq'i bayon o'rtar.

Bu bard birlan xarob o'ldim, kelib holimnu so'rmaysan,  
Unum chiqsa yurakdin, bul tan-u Jon, ustuxon o'rtar.

Bu Mashrab dardini, yo Rabki, hech kim boshig'a solma,  
Agar Mahsharda oh ursam, Bihishti jovidon o'rtar.

\* \* \*

Shahd-u shakardin ortug'um, oromi jonim keldilar,  
Ko'ngul uyini ko'rgali ruhi ravonim keldilar.

Ketib edi aql-u hushum, bilib tururlar xohishim,  
Yo'qdur alardek hech kishim, shirin zabonim keldilar.

Soqiy, manga sungil qadah, maxmur edim man ishqida,  
Shahri vujudim taxtig'a shohi jahonim keldilar.

Yod aylar erdim goh-goh, kelgaymu deb ul podshoh,  
Bo'ldi yuzum monandi koh, ul dilsitonim keldilar.

Doim anga hayron edim, ishqida sargardon edim,  
Man Mashrabi giryon edim, ul yori jonim keldilar.

\* \* \*

Maning oh-u fig'onimg'a o'shal payki sabo yig'lar,  
Taassuf aylabon, bag'ri kuyub shoh-u gado yig'lar.

Yurokim porasini tongla ochsam, xalqqa ko'rsatsam,  
Shafoat aylamasdin ilgari ul Mustafo yig'lar.

Musibat dostonidin agar daftar ochar bo'lsam,  
Abu Bakr-u Umar, Usmon, Aliyul-Murtazo yig'lar.

Bu dunyo g'urbatidan hech foriq' bo'lmadi ko'nglum,  
Biyobonlarda oh ursam, Husayni Karbalo yig'lar.

O'shandog' toj-u taxtini qo'yub anvoyi nuroni,  
Sulaymon holatimg'a Osaf ibni Burxiyo yig'lar.

O'shal nozuk adoning hajriga kim mubtalo bo'lsa,  
Saharlar nola aylab, o'rtanib, motamsaro yig'lar.

Yurakning dardini ochib birovga ko'rsatib bo'lmas,  
Mani baxti qaroning holiga baxti qaro yig'lar.

Sinamni chok etib, go'rdin ko'tarsam xasta boshimni,  
Kuyarlar mo'min-u kofir, hama vohasrato yig'lar.

Hama oshiqlarining birlan turarman bir taraf tongla,  
Xudo qozi bo'lub so'rsa, bu Mashrab dodxo yig'lar.

\* \* \*

Sani Layli-yu ra'nodek ajoyib dirlrabo derlar,  
Mani Majnuni shaydodek ko'yingda bir gado derlar.

Kecha-kunduz eshicingda fig'on-u nolalar qilsam,  
Ki harchandi navo qilsam, hanuzam benavo derlar.

Borib so'rdum tabiblardin: «Bu dardimg'a davo bormu?»  
Alar ayturki: «Ey nodon, bu dardi bedavo derlar!»

Boqibon ul pari ko'z uchidin yuz noz qilib o'tti,  
Ruhi chun ul mahi tabonru anvorul-hudo<sup>95</sup> derlar.

Tasattruj aylabon nogah nazat qilsa go'rיסטong'a,  
Qo'pub go'rdin hama odam, hama: «Vo hasratol!» – derlar.

Qani Layli, qani Majnun, qani Shirin bilan Farhod,  
Alar o'tti bu olamdin, bu olam bevafo derlar.

Itini xoki pojnik Mashrab ko'ziga surtti,  
Nido keldiki olamdin: bu ko'zga to'tiyo derlar.

\* \* \*

Na hojat hajji akbar, Koshg'ar uzra mazorim bor,  
Ziyyoi chashmima xoki daridin surmazorim bor.

<sup>95</sup> Anvorul-hudo – hidoyat nurlari.

Mijam jorub etib, ko'z kosasidan suv sepay derman,  
Bihisht ayvoni yanglig' soz etmak ixtiyorim bor.

Manga qismat azaldandur yemak dard-u alamlarni,  
Bu ishrat gulshanida zulm elidin g'amgusorim bor,

Iti ichkan yalog'ida manga ham to'ma bergay deb,  
Tilab Kavsar sharobin zuhd eli yanglig' xumorim bor.

Mani ko'rsa qochodur shayxul-islom Ahraman yanglig',  
Nechun, bo'ynumg'a zulfi ton chirmashg'an tumorim bor.

Azaldin man dili g'amgin xaloyiq xaylini sevdim,  
Shahid qorunu sipqorg'on shahansohlardin orim bor.

Tanim tarong'idur, har yonda yuz ming soyayı ar-ar,  
O'shal oh-u ko'zu g'am tog'i uzra sarvzorim bor.

Mani Mashrabni bo'ynini iting zanjing'a bog'lab,  
Erur davlat ayog' ostida sudratsang, na orim bor!

\* \* \*

Mori bad mandin qocharkim, koni nashtar manda bor,  
Battarini xalqdurman, nafsi kofar manda bor.

Har qachon darvozayı margdin omon o'tsam vale,  
Yo'l xatardur, qo'rqaman, yuz ming balolar manda bor.

Bas, maning nafsim xudolik da'vi qildi har zamон,  
Yo'lda qolg'on barhamanman, tashti axgar manda bor.

Chun azaldin, do'stlar, ishqida kuygan bandaman,  
Motamim boshimda ko'pdur, dog'i dilbar manda bor.

Otashimni toza qilmanglar, qo'yinglar, yig'layin,  
O'rtanib kuygan bu Mashrab dog'i abtar manda bor.

\* \* \*

Chiqsam ko'chag'a, shohsuvorim keladur,  
Gul g'unchasidek lola uzorim keladur.

Har yong'a boqib, kifrik o'qin xalqg'a otibon,  
O'tlarni yoqib jonimg'a, nigorim keladur.

Gulgun labidin ishq mayin elga sunibon,  
O'z mastlig'idin ko'zi xumorim keladur.

Jonimg'a tegib har sondin rashk qilichi,  
Mu'jgon o'qini har yon otorim keladur,

Kelmay necha kun qayda qaror etti ekankim,  
Ko'nglumdin olib sabr-qarorim keladur.

O'lmaymu bu dard birlaki, ey yor-u yoronlar,  
Har lahzada ming jonim olorim keladur.

Kunduz yo kecha – hech mahal kelmagan erdi,  
Bul turfa ko'rung: laylu nahorim keladur.

Gul bargi kabı g'am bilan sarg'aydi bu Mashrab,  
Ne g'am manga emdi kim, u(l) g'amxorim keladur.

\* \* \*

Dilbar yuzini ko'rgali devona kelibdur,  
Yuz noz-u karashma bila jonona kelibdur.

Yuz jonim agar bo'lsa, tasadduq anga aylay,  
Rafton bilan ko'zları mastona kelibdur.

Devonayi sho'nda, bu joningni fido qil,  
Kokillarikim belina chulg'ona kelibdur.

Zarroti jahon ichra kuyub, tashnalab erdim,  
Jonona bo'lub sohibi paymona kelibdur.

Joningni fido aylagil, ey xastayi Mashrab,  
Lablari shakar, tishlari durdona kelibdur.

\* \* \*

Ishqingda mani vola-yu hayron yaratibdur,  
Tarsobachani g'orati iymon yaratibdur.

Bul dasht-u biyobonda o'larman, netay oxir,  
Xoliq mani tashna, sani urmon yaratibdur.

Jonimni olur bo'lsang, ol, ey dilbari ra'no,  
Biz g'amzadalarni sanga qurban yaratibdur.

Taqdiri qalam boshima yetti, netayin, oh,  
Hajring g'amida besar-u somon yaratibdur.

Arzimni sanga aytayin, ey shohi jahonim,  
Bizlarni gadokim, sani sulton yaratibdur.

Sahroyi g'am ichra mani hayron-u, xarob-u  
Lab tashna-vu, dilxasta-vu sarson yaratibdur.

Chun ko'zlarini jodu demak ayni xatodur,  
Tangri ani o'z maylichcha maston yaratibdur.

Mastona sifat ishva bilan noz-u karashma,  
Parvona sifat sham'ig'a so'zon yaratibdur.

Devona-vu Majnun na qilur, yo'qdur ilozi,  
Az ro'zi azal bag'rini biryon yaratibdur.

Devonayi Mashrab na demish ersa, yoronlar,  
Ayb aylamangizlar, ani nodon yaratibdur.

\* \* \*

Hu sadosi dam-badam zoti huvaydodin kelur,  
Anglasangiz bul sadoni, sho'ri g'avg'odin kelur.

Oy yuzung Tohovu Sin – «'allamat-Qur'on»<sup>96</sup> emish,  
A'uzu billoh ma'nisi «Inna fatohno»<sup>97</sup> din<sup>98</sup> kelur.

Bandayi farmoni haqsan, aytganini qil qabul.  
Ushbu kun yavmun-nushur – «Nahnu qasamno»<sup>99</sup> din<sup>98</sup> kelur.

Har nakim yaxshi-yomon kelsa, biling, ey odamiy,  
**«Annamo amvolakum»<sup>99</sup>** – so'yi huvaydodin kelur.

<sup>96</sup> «'allamat-Qur'on» – Rahmon surasi, 1-2-oyatlardan, ma'nosi: Behad mehribon (Allah o'z Rasuliga) «Qur'on»ni o'rgatdi.

<sup>97</sup> «Inna fatahno» – Fath surasi 1-oyati Ifodasi.

<sup>98</sup> «Nahnu qasamno» – «Biz taqsim qildik»; Zuxruf surasi, 32-oyat Ifodasi.

<sup>99</sup> Anfol surasi, 28-oyatidan; ma'nosi: «Bilinglarki, albatta, mollaringiz va farzandlaringiz (sizlarga ham omonat, ham sizlarni gunohga tortishi jihatidan) bir fitnadir (imtihondir)...».

Sanki Mashrab, zotini, so'rab netarsan otini,  
San tilarsan zotini, ismi musammodin kelur.

\* \* \*

Ko'ngulni g'ayridin uzgil, saodat oshnodandur,  
Hamisha ravnaqi iymon duoyi avliyodandur.

Agar sud-u ziyon ko'rsang, bu yo'lda g'ayrdin ko'rma,  
Yamon-u yaxshini bilgil, hamasi ul Xudodandur.

Xudoni izlagan maqsudga hargiz yetmayin qolmas,  
Mutidning yo'lda qolmog'i u shayxi xudnamodandur.

Kelibman ostoniga maning dodimga yetgay deb,  
Gado davlatga yetsa, iltifoti podshodandur.

Kamon to qaddini xam qilmadi, yetkurmadi tiyrni,  
Jahannamning xalosi nolayi qaddi dutodandur.

Jahon sarkashlariga san muqallid bo'lma, ey darvish,  
Shahidlarga shahodat toji xoki Karbalodandur.

Bu yo'lda jon fido qilmoqni mushtoqi bo'lub keldim,  
Azozil gardaniga tavqi la'nat ham havodandur.

Xudoning berganidin – to tiriksan – xayr-u ehson qil,  
Hamaning to'shasi Mahsharda xayri bertyodandur.

Ochilmay ketti ko'nglum deb bu yo'lida uzma ummiding,  
Dilingning go'shini kar aylagan kori xatodandur.

Sani Iysonafaslar suhbatidin benasib etgan –  
Hama naxli takabbur birla qilg'on ul duodandur.

Ilohiy, nomayi Mashrabni o'ng qo'ldin ato qilg'il,  
Kelibman mulki uqboga, shafoat Mustafodandur.

\* \* \*

Jahonda hosili dunyo bilan uqbo malomatdur,  
Ko'ngulning mulkig'a sarchashmayi a'lo malomatdur.

O'shandog' Mustafo ham bemalomat bo'lmadi hargiz,  
Bizingdek osiy ummatga o'shal daryo malomatdur,

Malomatdin yetushti Ahmadi Muxtor Me'rojga,  
Ko'ngulning qiblasig'a nuri Baytulloh malomatdur.

Biling, xalqi jahon mardud desun aylab ihonatni,  
Vale mo'minga toat xolisan-lilloh malomatdur.

Jahon aybingni qilsun, bir Xudo bandam desun, Mashrab,  
Ko'ngulning mavjiga ul Jannat ul-ma'vo malomatdur.

\* \* \*

To xil'ati zohir kiyibon zebi tanimdur,  
Rasvo bo'lubon ko'yи malomat vatanimdur.

Yovuq erur andishayi xurshidi jamoling,  
Jon gulshanug'a lola-vu, sarv-u sumanimdur.

Xanjar mijalar ko'yig'a to tushdi guzorim,  
Sar to ba qadam zaxmi jafo pirahanimdur.

Bog'i Eram-u sahni gulistonni kerakmas,  
Ko'ksumda maning dog'i muhabbat chamanimdur.

Shamshiri jafo ayladi bismil bu boshimni,  
Mashrab, sharari ko'yи malomat vatanimdur.

\* \* \*

Eshitti go'shi dil – Allohu akbardin bu talqindur,  
Ko'ngul oyina bo'ldi mahzunlikdin – ganji zarrindur.

Jigarbandim, qo'lingdin kelsa, bir ko'ngulni og'titma,  
Bu ma'nudanki, Baytulloh – derlar qalbi – mo'mindur.

Ochilgan gulshan erdim, bog'i umrumga xazon keldi,  
Ki, har sarsabzanı obodi chun motamg'a tobindur.

Rafiqing g'am bo'lib tursa, ki rohat ne murod, ey mard?  
Jahonni ro'zgori gohi talx-u, gohi shirindur.

Muhammad - g'amga hamdam, ummat - ishratni mashg'uli,  
Nechuk daftar ochay xalqi zamona, susti dindindur.

Riyozat oftobiga pishurdim mevayi dilni,  
Haqiqat yo'lida Mashrabga yetgan - ko'hi tamkindur.

\* \* \*

Har kishini dardi bo'lsa, diydasidin nam kelur,  
Kimki munda shodlig' istar, orqasidin g'am kelur.

Siynayı daftarni ochsam, yetti Do'zax ochilur,  
Nolishimdin qo'rqaman, majlisga nomahram kelur.

Odamiyning asli birdur, bir-biridin farqi bor,  
Necha qarn o'tg'onidin dunyog'a bir odam kelur.

Yig'lamoq oson emas, ey san, jigarbandim, eshit,  
Mulki dil sadpora bo'lg'ach, diydasidin nam kelur.

Mullalar ilmig'a mag'rur, omilar isyong'a g'arq,  
Kas na bilsun, Ro'zi mahshar kimni toshi kam kelur?

Gar boshing Arshga yetushsa, san o'zungdin ketmag'il,  
Har daraxtni mevasi ko'p bo'lqa, boshi xam kelur.

\* \* \*

Nag'mayi arg'uvon chalib, dilbari xushnavo kelur,  
Lazzati ishqini topib, zikri ila sano kelur.

Asli muhabbat istasang, kulli sivoni tashlag'il,  
Faqr libosini kiyib, darbadari gado kelur.

Ushbu judolig' dardini man kimga aytay, do'stlarim,  
Yig'lamasam bu holima, dardima kim davo kelur?

Ohima Mahsharing bilan ham yetti Do'zaxing kuyar,  
Andin o'tib, bu holima Arshi uza sado kelur.

Bandayi pur gunoh o'zung, turg'il, saharda yig'lag'il,  
Ko'z yoshingni hurmatidin dardinga chun davo kelur.

Mashrabi Mahdiy Adhamiy xushladi faqr ahlini,  
Bandayi Siddiqi Umam basidqi dil safo kelur.

\* \* \*

Ulug' daryoyi rahmatga guhar tomsa, xazoyindur,  
Saning Zoting deganlar otashi do'zaxdin emindur.

Ijobat vaqtı bul ermishki: «**Subhonallaziy astro**»,<sup>100</sup>  
Dilingnung nuri ma'muri «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

Kishi «Omin» desa, Haqdin nido kelgay mo'minga,  
«**Laqod joa amruno**» nuri «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

Zamin-u osmon «Omin» bilan qoyim emish doyim,  
Maqomi «**Qoba qavsayni**»<sup>101</sup> «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

Kishi «Omin» desa, Haq anga aytur kunda ming labbayk,  
«**Vasallamta**» «**innal ma'vow**» «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

Xudo do'zaxga kuydurmas vale «Omin» deganlarni,  
Dilingga «**Rabbiyal-a'llo**», «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

Eranlar toptilar «Omin» bilan rohi haqiqatni,  
Yana «**fiho va mo fiho**», «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

Muso «Omin» demay nuri tajalliy ko'tmadi Haqdin,  
Yana «**Omantu billohi**», «**Valozzoliyn**», «Omin»dur.

<sup>100</sup> Isro surasi, 1-oyatiga ishora.

<sup>101</sup> Najm surasi, 9-10-oyatlamiga ishora.

Kel, ey Mashrab, duo qilgil tamomiy mubtalolarga,  
Ko'ngulga ayni chun miftoh – «Valozzoliyn», «Omin»dur.

\* \* \*

Ki holo barqi sarmastman, manga do'zaxni tanho ber!  
Mudom hushyor emas, mastman, manga do'zaxni tanho ber!

Qilay savdoysi boma'ni, haqiqat yo'lida ya'ni,  
Bo'lay adlingga man qoni', manga do'zaxni tanho ber!

Qulubi orifi billoh, valekin zoti «Bismilloh»,  
Topay ruhi Xallilulloh, manga do'zaxni tanho ber!

Qilay sho'rish bu Mahsharga, ochay daftar Payg'ambarga,  
Deyay arzimni Akbarga, manga do'zaxni tanho ber!

Qilay har dam tilovatni, ochay dildan jarohatni,  
Ko'targil ko'hi g'aflatni, manga do'zaxni tanho ber!

Ki ma'lum yo'qtur abyotim, bilolmam, qaysidur zotim,  
Jahonni tutti zarrotim, manga do'zaxni tanho ber!

Saraxbori muhabbatman, kamoli nuri rahmatman,  
Na parvoysi Qiyomatman, manga do'zaxni tanho ber!

Haqiqat mehmoniman, jahonning nuktadoniman,  
Falakdin shikva koniman, manga do'zaxni tanho ber!

Tutay domoni mehnatni, ato qilg'il bu himmatni,  
Uray ko'si muhabbatni, manga do'zaxni tanho ber!

Nido keldiki, ey Mashrab, sani man jannatiy qildim,  
Bu yo'lda aylagil taslim, manga do'zaxni tanho ber!

\* \* \*

Ko'ngul zangorini sof aylagan piri mukammildur,  
Alarning domanini gardidin ming ganj hosildur.

Qilurlar ajdahoyi nafsni tasxir orif xalq,  
Jahonning obro'yı – ma'rifikat etsang, nechuk tildur.

Agar komil bo'lay desang, ~~dilengdin~~ da'vini gum qil,  
Bu davlatni topar har kimki, munda ruhi qobildur.

Faromush etmag'il o'lmoqni, iymondin umiding bor,  
Ilyon etgan kishiga Jannatul-firdavsi manzildur.

Qilib bo'lmas bu yo'lda xonavayronlarning aybini,  
Kishi mahbubi din bo'lsa, anga har ro'z ming yildur.

Analhaq sirtini har bexabarga aytnagin zinhor,  
Xudoning roziga mahram emasdur, kimki tangdildur.

Kelibman intizoni xoki poying bo'lg'ali Mashrab –  
Ki, sansiz manga dunyo ishrati chun zahri qotildur.

\* \* \*

Ul agar bir lutf qilsa, talxni shirin qilur,  
To'ksa rahmatni Xudo, kofirni ham mo'min qilur.

Qobili ma'niy kerak, bag'n bu yo'lga hamnishin,  
Necha bir talqin bu yo'lda, boz yana tamkin qilur.

Mon afyundin batardur norasoning suhbati,  
Kimki noqobil bilan yursa, dilin chirkin qilur.

Tanda joning borida san domani komilni tut,  
Zikri Haqni neklar ko'nglungga xo'p talqin qilur.

Oftobi vaqt o'tti, ruhi Shamsuddingga bor,  
Bir nafasda necha sandekni Bahovuddin qilur.

Ma'rifatning tolibi bir lahza beg'am yo'qturur,  
Bora-bora kohili oxir sani bedin qilur.

Jomayi dastor birlan so'filik qilmoq mahol,  
Bul lahadning gardi yuz ming bandani g'amgin qilur.

Oftobing o'tmayin, Mashrab, qo'pub fikringni qil,  
Nek xalqlarning duosi dilni sohibdin qilur.

\* \* \*

Malaksan yo bashar, yo hur-u g'ilmonsan, bilib bo'lmas,  
Bu lutf-u, bul nazokat birla sandin ayrib lib bo'lmas.

Ajab berahm dilbarsan, ajab sho'xi sitamgarsan,  
Charog'i husni ro'yingdin ko'ngulni xam qilib bo'lmas.

Yuzungni oftobini ko'rub hayron bo'lub qoldim,  
Falakka qo'l uzotib, shamsi anvarni olib bo'lmas.

Yuzung misli qizil guldur, ko'ngul chun bulbuli shaydo,  
Bu gulning ishqidin bulbul charmandin ayrib lib bo'lmas.

Kel, ey Mashtab, agar oshiq bo'libsan, bo'lmag'il g'ofil,  
Bu g'aflat uyqusidin, ey yoronlar, uyg'onib bo'lmas.

\* \* \*

Ishq mazhabig'a taqvi-yu toat chidayolmas,  
Tasbih-u sano, zuhd-u ibodat chidayolmas.

Kim ko'rsa o'shal dilbari ra'noni bayakbor,  
Betoqat o'lub, aysh-u farog'at chidayolmas.

Faryod-u fig'onlar qiladurman kecha-kunduz,  
Hayratda qolib qad ila qomat chidayolmas.

Adham sifat ul kirsa kishi faqr yo'liga,  
Osoyish ila xayr-u saxovat chidayolmas.

Arbobi muhabbatga yetib bo'yи sanamdin,  
Aqli ketibon, sabr-u qanoat chidayolmas.

Ey zohid, agar ko'rsang o'shal mohliqoni,  
Zuhd-u, vara-u, kashf-u karomat chidayolmas.

Devona qilur ishqı sanam, vasli chu majnun,  
Nomus-u hayo, ayb-u qabohat chidayolmas.

Kim jomi muhabbat mayidin jur'ayi ichsa,  
Shohona hasham, izzat-u hurmat chidayolmas.

Bul ishq elining har dam etar valvalasig'a,  
Beshubha biling, dasti irodat chidayolmas.

Mashrab, kelibon ko'ngul ila raqsi samo qil,  
Ishq mazhabiga obi tahirat chidayolmas.

\* \* \*

Dardim o'tig'a yor-u birodar chidayolmas,  
Dard ahli yonar, hazrati dovar chidayolmas.

Dardimdin agar zarra asar qilsa falakka,  
O'tlar chaqilur, charxi mudavvar chidayolmas.

Ishq gavharini fosh agar qilsam o'shanda,  
Dallof fig'on aylar-u mushtar chidayolmas.

Bul sirri dilim zohir agar bo'lsa falakka,  
Ul moh kuyar-u shamsi munavvar chidayolmas.

Ul ro'zki amal nomasini bersa qo'lumga,  
Ochib o'qusam, majma'i Mahshar chidayolmas.

Dardimni agar solsa tarozuyi amalga,  
Oni ko'rubon mo'min-u kofir chidayolmas.

Voiz bo'libon va'z desam masjid eliga,  
Va'zim eshitib, masjid-u minbar chidayolmas.

Ash'ori laziz birlan javob aytти bu Mashrab,  
Oni o'qubon, ko'rsa, Muzaffar chidayolmas.

\* \* \*

Chun qo'lum birlan ayoqim bog'lamoq hojat emas,  
Man o'lumga rozidurman, turgali toqat emas.

Muncha shiddat birlа boshim kesgali zo'r aylarma,  
Baski, odam qoni to'kmak sanga ham toat emas.

Umr chun barqi havodis, g'ofil odam bilmadi,  
Oy-u kun oromiga bir lahzaye fursat emas.

Lashkari xunrez bo'lsa, sabr-u orom qayda bor?!  
Majnuni devonalardin shohg'a rohat emas!

Chun muborak bo'lsun, ey Mashrab, qizil qoning saning,  
Xo'b ish bo'ldi sanga, jon bergenning ofat emas.

\* \* \*

Naylayin, dildordin begona bo'ldum oqibat,  
Yuz g'am-u hasrat bilan hamxona bo'ldum oqibat.

Bul judolig' hasratidin toqat etmay bir zamон,  
Hajr jomidin ichib, mastona bo'ldum oqibat.

Necha yil ko'yida yurdum, yetmadim vasliga hech,  
Hajr xamridin ichib, devona bo'ldum oqibat.

Yorning vaslig'a yetgaymanmu deb shom-u sahar,  
Hajr o'tida o'rtanib, parvona bo'ldum oqibat.

Haddin oshdi bul maning rasvolig'im olam aro,  
Xalqi olam ichra ko'p afsona bo'ldum oqibat.

Xonayi ayshi nashotimni hama barbod urub,  
Chug'zdek dar kunji har vayrona bo'ldum oqibat.

Xonaqovu Ka'bardin, Mashrab, muroda yetmadim,  
May ichibon, sokini butxona bo'ldum oqibat.

\* \* \*

Qildi bul charxi falak rasvoysi davron oqibat,  
Boru yo'qum bo'ldi oxir yerga yakson oqibat.

G'ussa-vu g'amdin qutulmaydur g'arib boshim maning,  
Kimni hamdardim dedim, qildi parishon oqibat.

Oxiri bilmam qayerga eltadur bul motamim,  
G'amdin o'zga bo'lmasdi dardimga darmon oqibat.

Sarv qomatlarni qaddin charxi gardun qildi xam,  
Sherlarning korini marg etti oson oqibat.

O'rtanurman otashi hijronida misli sipand,  
Manga kelganda qurub qoldi guliston oqibat.

Tarki suhbat ayladim hamrohi noqobil bilan,  
Rohi obodini tuttum, bo'ldi vayron oqibat.

Bo'limg'ın past, himmatingni tut baland chun mo'ti lang,  
O'zligingdin beri kel, bo'lgan Sulaymon oqibat.

Vaqti oxir bo'ldi deb bisyor chu Ya'qub yig'lagil,  
Yo'qlagay shoyad sani Yusufi Kan'on oqibat.

Bemadore bo'limg'ay hargiz ravishi bul jahon,  
Hodiye bo'lg'ay tuyassar – rohi inson oqibat.

Mehri ketmaydur dilimdin, chiqsa ham jonim maning,  
Orzusidir manga ham din-u iymon oqibat.

Kimga dard aytayki, munda mehribonim bo'lmasa,  
O'rtadi jonimni kori bopushaymon oqibat.

Xona-xona hasratim mulki dilimda jo'sh urar,  
Qilmadim Arsh ustida bir lahza javlon oqibat.

Jon chiqar vaqtiga yetti, ham uzuldi tori umr,  
Bir so'rab kelsa na bo'lg'ay, nomusulmon oqibat?

Vaslig'a yetmakka oshiqning iloji yo'q ekan,  
Dard bo'ldi oxiri Mashrabga darmon oqibat.

\* \* \*

Onadin bo'ldum, jahonda bo'lmadim shod oqibat,  
Yig'ganim bo'ldi fano mulkida barbod oqibat.

Dona deb domi muhabbat tushti boshimga maning,  
Domi mehnatni qurub yo'limg'a sayyod, oqibat.

To'ldi paymonam maning, ko'yingda jon bermak ishim,  
Tig'i hasratni qo'yub halqumg'a jallod oqibat.

Ustuxonim suda bo'lg'uncha saning darding bilan,  
Shohsan, arzimga yet, qilsam kerak dod oqibat.

So'filik oson emasdur, har kishi rost anglasa,  
Qo'ydi yo'ldin xalqni noloyiq irshod oqibat.

Qolmadı Jamshidu Skandar, qani Afrosiyob?  
Topmadi dasti ajaldin xonaobod oqibat.

Mashrabo, nuqson o'zungda, shoh hidoyatli, vale,  
Nafs ham mardudu ham Fir'avnu Shaddod oqibat.

\* \* \*

Tarozuyi amalni qo'ilga ol, so'ngra barobar tut,  
Xatarlik yo'ldasan to, justujo' qil, yaxshi rahbar tut.

Iymonning sham'ini ravshangaridur hamdami qobil,  
Qo'lingdin kelsa, doim yaxshi xalqlarni birodar tut.

Maqomi qurbat uyig'a agar kirsang – huzur topsang,  
O'zung zahroba yutgil, xalqning komig'a shakkar tut.

Bag'ir qoni, ko'zung yoshi, qadi xam birlan oh tortgil,  
Shafo'at vaqtı bo'ldi, anda domoni Payg'ambar tut.

Boshing gardunga yetsa, bo'limgil zinhor xursande,  
O'zungni har xas-u xoshokdin, ey banda, kamtar tut.

Balo ko'rgan kishilar majlisini orzu qilg'il,  
Ki har shum lodani ko'rsang, o'zungni munda behtar tut.

Taraddud aylagil, zangi diling shoyadki sof o'lg'ay,  
Hidoyat ko'chasining tindi bo'l, domoni Mahshar tut.

Ulug'man deb takabbur pesha qilma mushtiparlarga,  
Sarafrozi topay desang, davomat diydani tar tut.

Havas bozorini dur aylagil zinhor boshingdin,  
Qo'lungni ikki dunyodin uzub, dilni qalandar tut.

Bahoyimdek yemak-ichmakni sargardoni ko'p bo'lma,  
Kafan bichgil o'zungga, dilda o'lmosg'ni muqarrar tut.

Adam sahrosidin dunyoga kelding, banda bo'lsam deb,  
Kamar bog'lab belingga, zikri tasbihi eranlar tut.

Bu zindon xonadin o'tgung, ko'rundi Jannat ul-a'lo,  
Baland et himmatningi, munda kelding, misli Haydar tut.

O'zini bilmagan bedardlarga ochmagil daftar,  
Xalildek o'tni gulzor aylagil, xo'yil samandar tut.

Bu yerda yori bersa, lutfi Haqdin garchi iqboling,  
Adolat mulkinining sarrishtasini misli Umar tut.

Bu fonyi dunyadin, Mashrab, yetishsang boqi uqbog'a,  
Sirotal-mustaqimdin o'tting, so'ngra rohi digar tut.

\* \* \*

Namangandin ketar bo'lsam, mani yo'qlar kishim bormu?  
G'ariblik shahrida o'lsam, mani yo'qlar kishim bormu?

Qani qavm-u qarindoshim, bu yo'lda bo'lsa yo'ldoshim,  
Ko'zimdin oqizib yoshim, mani yo'qlar kishim bormu?

Muhabbat sharbatin ichum, qazondek qaynabon toshim,  
Bu fonyi dunyodin kechtim, mani yo'qlar kishim bormu?

Tushubdur boshima savdo, ramuzi ishqidin g'avg'o,  
O'ziga ayladi shaydo, mani yo'qlar kishim bormu?

Turarga toqatim yo'qtur, yurarga holatim yo'qtur,  
Yurakda ishq o'ti cho'qtur, mani yo'qlar kishim bormu?

Qarorim yo'q turay desam, Namanganda yuray desam,  
Jahonni sayr etib kezsam, mani yo'qlar kishim bormu?

Bu miskin zor Mashrabning kishi holini bilmaydur,  
Bu yerdin bosh olib ketsam, mani yo'qlar kishim bormu?

\* \* \*

Agar har bandaga Xalloqi olam rahnamo bo'lmish,  
Shafoatgar Mahsharda Muhammad Mustafo bo'lmish.

**Sharobi antahuro** – chashmayi Kavsar nasib etgay,  
Kishikim do'stdori chor yoni bosafo bo'lmish.

Bo'lub diydor jo'yon oshiqi sodiqlarining, ammo,  
Chekib dard-u balolar, tolibi dard-u balo bo'lmish.

Yoshim-u ro'yil zardimni ko'rub holimg'a rahm ayla,  
Muhabbat o'tig'a kuyub yurak-bag'rim ado bo'lmish.

Qarong'u kechalarda, Mashrabo, yig'lab duo qilg'il –  
Ki, Rahmonir-Rahiyim otlig' gunohlarg'a davo bo'lmish.

\* \* \*

Lomakonning shahrida oshiqni shaydo qildi ishq,  
Anbiyovu avliyolarni huvaydo qildi ishq.

Mustafoning nurdin yozildi «Shams»u «Vaz-zuho»,  
Nuriga sajda qilib, ma'noni paydo qildi ishq.

Jilvasini ko'rsatib zohirda elga rang-barang,  
Oru nomusdin kechib, olamg'a g'avg'o qildi ishq.

San eshit ul dam Zulayho necha yil chekti alam,  
Yoshini o'n to'rt qilib, ko'r ko'zni bino qildi ishq.

Yoshi yetmishga yetib sotturdi o'zni Boyazid,  
Ma'tifat bozorida, ko'rgil, na savdo qildi ishq.

Shayx Shibliy, shayx Attor, ul «Anal-haq» suhbatin –  
Qurdi, ichdi bodani, Mansurni dordo qildi ishq.

«Kufr ayttil!» deb Nasimiy terisini so'ydilar,  
Go'sht-u po'stin so'zlatib olamga go'yo qildi ishq.

Shayx San'ondin bo'lub to'rt yuz murid sohibkamol,  
Ko'rди tarsozodani, xukbonu tarso qildi ishq.

Bildi-yu eshitu Mashrabning qarori yo'q ekan,  
Zohirin go'yo qilib, botinni bino qildi ishq.

\* \* \*

Asli bilsang, hujrayi dilga shariatdur chirog',  
Bechirog' hargiz qadam qo'ymas bu yo'lda aqli sog'.

Dil ko'targin – mardsan, gardi taalluqdin bu kun,  
Toki kesmay shoxidin, hargiz samar bermas bu bog'.

Gardaningdin langari shayton hanuz tushguncha yo'q,  
Ey xari lang, cholushungni chust qo'y, yur ilgarog'.

Umrum o'tti, vo darig'o, maqsud hosil qilmadim,  
Yo'l xatar keldi, bu yo'lda oh uray, manzil yirog'.

Zindalikda qadri umrungni bilib, toatda bo'l,  
Bas, mabodo qo'rqaman qo'ldan tushib singay tavog'.

Haq taolo doimo mandin rizo bo'lsun desang,  
Osmonga yetsa boshing, bo'lma hargiz baddimog'.

Har suxandin daftar ochma bexabarning oldida,  
Ma'nifatdin bexabar – har yerda bo'lsa karqulog'.

Bo'lma nodonlarga hamdam, Mashrab, qadning ketar,  
Majlisi nodonlardin dur bo'lmog' yaxshirog'.

\* \* \*

Nafsi sarkash muddaosidin Xudo bersun panoh,  
Bul zamona muttakosidin Xudo bersun panoh.

Xirqayı bechora kiymoqlikmu rohi bandalik?  
So'fining dalqi niyosidin Xudo bersun panoh.

Jomayi malla kiyib, qilg'on ishi hiyla-vu makr,  
Shayxi noqis xonaqosindin Xudo bersun panoh.

O'zları komilsifat, har luqmasi haqqi sag'ir,  
Yurtni ul «sohibduo»sidin Xudo bersun panoh.

Lof urar «Abdoli vaqtman!» deb, so'zida ma'ni yo'q,  
Bul zamona rahnamosidin Xudo bersun panoh.

Mard lashkar yo'sinida qo'liga tasbih olib,  
Shayxning rangin asosidin Xudo bersun panoh.

Muttaqiylık da'vei aylab, o'zlarini pir tutub,  
Oxiri vaqt porsosidin Xudo bersun panoh.

Bul qalandar jandasining torida zunnorı yo'q,  
Boshiga kiygan kulosisidin Xudo bersun panoh.

Mashrabi sho'tidaning qilgan duosin qil qabul,  
Ul saharxezning duosidin Xudo bersun panoh.

## MURABBA'

Hamdu sanolar aytay Xudoga,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?  
Yetgaymu dodim nozuk adoga,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Shum toleyimdin ko'rdum jafoni,  
Zolim raqiblar ko'rdi vafoni,  
Holim so'r emdi, bergil davoni,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Bulbuldayinkim faryod etarman,  
Ishq daftarini bunyod etarman,  
Ko'nglumni bir dam man shod etarman,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Qachon visoling bo'lg'ay tuyassar,  
Ishqingda kezdim ham bahru ham barr,  
Dardu alamga to'ldi ko'ngullar,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

G'am bahri qildi mavjini bunyod.  
Ishqingda qildim ming ohu faryod,  
O'tti nigorim chun sarvi ozod,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Hajr ahli keldi, tutti yoqamdin,  
Bag'rim tilindi paykonu g'amdin,  
Faryod etarman ushbu alamdin,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Sham'i firoqing ko'ksimda yondi,  
Ko'z yoshim oqib bag'rimga tomdi,  
G'aflatda qolgan Mashrab uyondi,  
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

## MUXAMMASLAR

\* \* \*

Jasad begonadur ul damki, nogoh sardin ayrlisa,  
Sadafning qadri kam, ko'ksida gavhardin ayrlisa,  
Chunon labtashnadur olam-ki, bahru barrdin ayrlisa,  
Xarobi zud topar har mulkkim, sarvardin ayrlisa,  
Bo'lur Mahsharda sharmanda agar rahbardin ayrlisa.

Ko'zung oldida yurgan nuktadonlar ketti, qon yig'la,  
O'zungdek sherdil bexonumonlar ketti, qon yig'la,  
Suxanni bilguchi shirin zabonlar ketti, qon yig'la,  
Azizlar, mardlar, qadrdonlar ketti, qon yig'la,  
Qaerga yo'l topar ummat-ki, Payg'ambardin ayrlisa.

Durust ixlos qilgin, chun Bihishtni bermagil qo'ldin,  
O'shal domoni sohib tarbiyatni bermagil qo'ldin,  
Bu yo'lda sham' bo'lg'il, anjumanni bermagil qo'ldin,  
Mudom toatda bo'l, Rizvon – chamanni bermagil qo'ldin,  
Yeturgay maslahatni, shoh agar lashkardin ayrilsa.

Bu yo'lda ofiyatlig' ul Odam birlan Havo ketti,  
Ko'zumni to yumub ochtim, Xalili bosaflo ketti,  
O'shandog' ko'hi Turda roz eshitgan ul Muso ketti,  
Yaqongni chok etib yig'la, o'shandog' Mustafo ketti,  
Alamdin o'ttanur tifle, agar modardin ayrilsa.

Durust etgil, ko'zungning nuri ketmay, zindagoningni,  
Davomat tavba qil, shayton olib ketmay iymoningni,  
Kishidin bo'yı dard kelsa, fido qilmangmu joningni?  
Muhabbat yo'lida barbod qilg'il xonumoningni,  
Yetolmas murg' makonig'a, chu bolu pardin ayrilsa.

Safar yo'lidadurman, manzilim ham hamdamim yo'qtur,  
Jahonni sel agar olsa, maning hargiz g'amim yo'qtur,  
Jarohatlik dilimga naf' qilg'an marhamim yo'qtur,  
Dilimni kavlama, o'rtanmakimdin hech kamim yo'qtur,  
Topar do'zaxda jo har banda, chun Akbardin ayrilsa.

Ketar vaqtida Mashrabning diliiga ganji rahmat ber,  
Iloho, yo'l yiturgan Osiy ummadarga jannat ber,  
Musulmon bandaga ko'fruk o'tarda xush saodat ber,  
Diliga har zamon otashi garmi muhabbat ber,  
Yetar mo'min Xudoga, nafsdek kofardin ayrilsa.

\* \* \*

Ibtido Allohu Akbardin nishon kelturmisham,  
Jumla mavjudota Haq nuri ayon, kelturmisham,  
Xoliqi kavnu makonu lomakon kelturmisham,  
Bandavu ro'y়i zaminu osmon kelturmisham,  
Odamu huru pariyu insu jon kelturmisham.

Ahmadi mursal erurkim – xotami payg'ambaron,  
Ul Rasuli mursaliyn, toji sari payg'ambaron,  
Xoki poyig'a qo'yar bosh jumlayi shohi jahon,  
Ro'zi Mahsharda shafo'at qilg'ay ul nuri ayon,  
Mag'firat qilg'ay, gunohi osiyon kelturmisham.

Hazrati Siddiqi Akbardur rafiqu yoni g'or,  
Yoni duvvumdur Umar – islomni etti oshkor,  
Jome'ul-Qur'on uchun Usmonki, jon qildi nisor,  
Yoni chorum – hazrati Sheri Xudo, duldulsuvor,  
Chori yoroni Rasuli xonadon kelturmisham.

Ul Aliyi Murtazodin qoldi ikki gavhati,  
Ko'p jafo qildi alarga ul jahannam saglari,  
Barchaga bo'ldi shafo'atkor shahidlar sarvari,  
Bul sababdin bo'ldi ummatlarga hamdam rahbari,  
Daftari xuni shahidon – g'oziyon kelturmisham.

Hazrati Maxdumi A'zam – peshvoysi orifon,  
Hazrati Dahbediy erdi nomi – Eshoni kalon,  
Hazrati Xojam – Hidoyat qiblagohi oshiqon,  
Tavf etib shomu saboh muxlisoni sodiqon,  
Ro'zi panjshanba tavofi insu jon kelturmisham.

Ma'nifat tuxmini sochib, olama bir-bir bayon,  
Ofarin qildi falak uzra tamomiy qudsiyon,  
Ganji maxfiy erdi avval – sirru astrori nihon,  
Chun tariqat yo'lig'a yo'l ko'rsatib, qildi ayon,  
Hazrati Iysonafas g'aybul-lison kelturmisham.

Bo'lg'ay ul Eronu Turon – podshohi bahru bar,  
Adlidin bulkim qurug'on shoxlar berdi samar,  
Marhamat qilsa, bu yo'lda lutf etib bizga nazar,  
Qoshg'ar mayli qilib, shohanshahim qilsa safar,  
Mashrabingga qatra-qatra durfishon kelturmisham.

## MUSADDAS

Boshimga doimo Haq rahmati sarshor uchun keldim,  
Muhabbatdin olay deb – maxzanul-asror uchun keldim,  
Rabou ko'hnaga man oshiqli diydor uchun keldim,  
Jahon bir habbaega arzimas, man yor uchun keldim,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

O'shandog' arzi holimni dedim shohi takallumga,  
Mani ruhumni ko'rdi, tushti sho'rish kulli mardumga,  
Yuzumni ba'dazon surtmoqchiman xoki tazallumga,  
Otam bohimmat erdi, sotti haft jannatni gandumga,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Najosatxonaga oluda qilmam asli poyimni,  
Osib keldim bukun bo'ynumga man ko'hi gunohimni,  
Ko'ray deb Rahmata-lilolamindek qiblagohimni,  
Yo'tida barham urdum Jannat otlig' taxtgohimni,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Chaqirdi bandan, oldimga kel, deb Podshohi ishq,  
Muhabbat koni erdim, tegdi boshumga kulohi ishq,  
Qo'lumga tegdi oxir taxti baxti kimyoyi ishq,

Mani oldi bag'alga Ahmadi Muxtor – duoyi ishq,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Muyassar bo'ldi ummatga o'shal Ahmadni og'ushi,  
Talotum qildi ul soat ulug' rahmatni darjo'shi,  
Daraxti To'bivu Kavsar hama bo'ldi faromushsi,  
Bu yo'lda bo'vi Ahmad qildi oshiglarni behushi,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Azaldin ruhi pokim tozadur, man olihimmatman,  
Tamomi Arshu Kursi man uchundur, Ahli sunnatman,  
Na xavfim yetti do'zaxdur, na mushtoqiki jannatman,  
Shu davlat manga yetmasmu ki, man Ahmadga ummatman,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Ko'tardim boshim uzra langari ro'zi Qiyomatni,  
Azaldan qo'lga olganman hamon zanjiri Qudratni,  
Umidim bordur – ustumga to'kkay nuri rahmatni,  
Taloq qildim Muhammad soyasiga hasht jannatni,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

O'zumru qayda man solmoqchi erdim müncha savdoga?  
Boshimni qo'ymas erdim hamchunon shiddatlı g'avg'oga,  
Qu'lumnu urmas erdim hech vaqt zulmatlı daryoga,  
Makonim bor edi jannat ichinda taxi a'loga,  
Sıra kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Yaqin hilgilki, Xatmul-Mursalining zavqidin keldim.  
Kiromi Rahmata-lilolamining shavqidin keldim,  
Maloiklar, so'rang, Ruhul-Aminning zavqidin keldim,  
Bu kun mahbubi Rabbil-'olaminning shavqidin keldim,  
Sıra kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Qo'lum domoniga mazbut, tanim joniga yetguncha,  
Faromush aylamamdu poy go'ristoniga yetguncha,  
Jigarxun bo'ldilar bir ummate iymonga yetguncha,  
Qo'lum domonidin ko'toh emas, rizvonga yetguncha,  
Sıra kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

Muborak domaniga ro'zi avval chang solganman,  
Agarchi zohirim isyon daryosida qolganman,  
Bu yo'lida tiyg'i Illalloh bilan bag'rimni cholganman,  
Benb jannatni, gardi domanini sotib olganman,

Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlarga bor uchun keldim.

Umidim ko'p erur, ruhum hama qolabni yo'qlar deb,  
Tamomi mujtahidlar tolibi mazhabni yo'qlar deb,  
Karamli Podshohim oshiqi matlabni yo'qlar deb,  
Shafo'at taxtiga chiqqan Shahi Mashrabni yo'qlar deb,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiyning soyasi ummatlarga bor uchun keldim.

# MUNDARIJA

## G'AZALLAR

«Kori muflis sahl erurkim podshoning oldida...» .....	3
«Man nola qilay shornu sahar dod, eshicingda...» .....	3
«Jumlayi maqsudni san zoti Allohdin tla...» .....	4
«Tushti savdoi muhabbat boshima...» .....	6
«Har kishining dardi bo'lsa, yig'lasun yor oldida...» .....	7
«Asli davlat din erur, mardi badavlatman dema...» .....	8
«Banogoh uchradi dilbar kulub mastona-mastona...» .....	10
«Dil ani derlarki, hargiz mojarosi bo'lmasa...» .....	11
«Borurman ostoniga sahar ohista-ohista...» .....	11
«Sahro yuzi ko'karmas to yoz bo'lmaguncha...» .....	12
«Sanam yuzini ko'rsatur oshiqi mubtalosig'a...» .....	12
«Ko'nglumni berdim san bevafog'a...» .....	13
«Ko'rsat jamoling mastonalarg'a...» .....	14
«Arzimni aytay bodi sabog'a...» .....	15
«To kiydi qizil o'zini zebo qilayin deb...» .....	17
«G'am biyobonida qoldim, yig'ladim ko'p yor deb...» .....	18
«Shuhrat aylabkim, alardek xudnamolarni ko'rung...» .....	19
«Jafo qilding bu jonimg'a, vafoni ko'rmadim hargiz...» .....	20
«Barchalar yondi gunohdin, manki yonmasman hanuz...» .....	22
«Kecha bazmingdin yiroq ishq ahli chandon yig'ladi...» .....	23
«Ming sho'ni fig'on birlan, hay-hay, ne balo keldi...» .....	24
«Oq yuzungda xol-u xat, ko'z ko'rmag'aydi koshki...» .....	25
«Kimga aytib yig'layin nozuk adoning dardini...» .....	26
«G'amza kofir, ishva jod-u jilva qolmoqim qani?..» .....	27
«Oshiq uldur, to diligsa saqlasa astorni...» .....	27
«Do'stilar, yaxshi demanglar odami berohni...» .....	28
«Qachon bo'lg'ayki, ko'rgayman o'shandog' mohi anqoni?..» .....	29
«Bandaman dersan, tilingda zikri Subhonning qani?...» .....	31
«Bul tanı xokini-yu ruhi ravonni na qilay?...» .....	31

«Ko'ngul vujudini buzgan O'ziga nola qilay...»	32
«Da'viyi ishq etgali Majnuni benavo kerak...»	33
«Oxirat yo'li xatardur, himmati a'lo kerak...»	34
«Olami ruhonilarga oshno bo'lmoq kerak...»	34
«Xudovando, tilim og'ushtayi hamd-u sano qilg'il...»	35
«Zikriyodek «Hu» bilan ko'ngulni san me'mor qil...»	36
«Ko'ngul dardini bir ko'ngli buzulg'an yordin so'rg'il...»	37
«Tashna keldim, sandin izlab gavhari obi zulol...»	37
«Yer uzra ochilg'on yo'q dahr ichra saningdek gul...»	39
«Jamoling ko'rgali keldim, ayo, ey mehribon onam...»	40
«Qiyomatdур agar, jonoki, man sandin judo bo'lsam...»	41
«Ki man ovvora hijron ilkidin faryodlar qilsam...»	42
«To Adam sahrosidin baxti qaro kelturmisharn...»	43
«Qaysi kun bo'lg'oyki, man Makkada ma'vo aylasam...»	44
«Alifni dilga jo qilmoqni «Bismilloh»din o'rgandim...»	44
«Azaldin to abad, do'stlar, hamisha oh deb keldim...»	48
«Ishqing o'tig'a kuyg'oli keldim...»	48
«Jonon, yuzungni ko'rg'oli keldim...»	49
«Avval Odam edim, hamsuhbat Havvo bo'lub keldim...»	50
«Birodarlar, man ushbu kecha Majnundin nazar topdim...»	52
«Dunyo sarig'a bir kelibon, g'amzada kettim...»	53
«Ketti qaror-u, sabr-u hush, qolmadi tanda toqatim...»	54
«To olami zohirg'a kelib man guzar ettim ...»	55
«Netgum, sanamo, ishqing o'tida vatan ettim...»	56
«Dil dashida g'am ohularig'a vatan ettim...»	57
«Jumla xalq toatdadur, man, bas, xato qildim, Kam...»	57
«Adam iqlimidin keldim, tarnoshovi jahon ko'rdum...»	58
«Shohi jahonim, ishqingda o'ldum...»	59
«Ko'rdum yuzungni devona bo'ldum...»	60
«Dunyon ni pushtipo urub, Adhami benavo o'zum...»	62
«Masti jomi vahdatam, jono, sanga man zor o'zum...»	63

«Ishq vodisidin bir kecha man hay-halab o'ttum...» .....	64
«Sining vasling tilab dunyoga bir sohib azo keldim...» .....	65
«Firoqing o'tida, ey guluzor, yig'larman...» .....	66
«Dargohinga bir ojizi afgor kelibman...» .....	67
«Tinmayin yurdum bu g'am dashtida hayronlik bilan...» .....	68
«Bu olamda o'zumdek siynasi afgor topmasman...».....	69
«O'lduroyin dermusan yo kuyduroyin dermusan?...».....	70
«Ey maning nozik nihol oromi jonim, qaydasan?...» .....	71
«Ey gal badanim, gal yuzunga banda bo'loyin...» .....	71
«Yig'lasam, vaqtı duo bo'lg'aymukin?...» .....	72
«Yorning ko'yida o'lg'an bormukin?..» .....	73
«Mandin salome ba so'yı jonon..» .....	74
«Ay (I) – alifdek qomatindin ibudo qildim bukun...»....	75
«Xojalig' oson erur, mardi Xudo bo'lmoq qiyin...» .....	77
«Rahravonlar kettilar, man munda tanho boraman...» ..	77
«Xojatim bor noravo, man yig'lamay kim yig'lasun?...» .....	78
«Ey kasal, boshingni ur – yoningda Luqmon ketmasun...» ...	79
«Botini sho'ridalarni kimiyo qil, ey Xudo...» .....	80
«Ey falak, qilding mani ul mehribonimdin judo...» .....	81
«Xush qoling, man emdi ketdim, ey yoronlar, alvido!..» .....	81
«Ey sabo, mandin degil sarvi ravonimg'a duo...» .....	82
«Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar...»...83	
«Shahd-u shakardin ortug'urn, oromi jonim keldilar...».....	84
«Maning oh-u fig'onimg'a o'shal payki sabo yig'lar...» ..	84
«Sani Layli-yu ra'nodedk ajoyib dilrabob derlar...».....	86
«Na hojat hajji akbar, Koshg'ar uzra mazorim bor...» ..	86
«Mori bad mandin qocharkim, koni nashtar manda bor...» ..	87
«Chiqsam ko'chag'a, shohsuvorim keladur...» .....	88
«Dilbar yuzini ko'rgali devona kelbdur...».....	89
«Ishqingda mani vola-yu hayron yaratibdur...» .....	90
«Hu sadosi dam-badam zoti huvaydodin kelur...» .....	91

«Ko'ngulni g'ayridin uzgil, saodat oshnodandur...»	92
«Jahonda hosili dunyo bilan uqbo malomatdur...»	93
«To xil'ati zohir kiyibon zebi tanimdur...»	94
«Eshitti go'shi dil – Allohu akbardin bu talqindur...»	94
«Har kishini dardi bo'lsa, diydasidin nam kelur...»	95
«Nag'mayı arg'uvon chalib, dilbari xushnavo kelur...»	96
«Ulug' daryoyi rahmatga guhar tomsa, xazoyindur...»	97
«Ki holo barqi sarmastman, manga do'zaxni tanho ber!»	98
«Ko'ngul zangorini sof aylagan piri mukammildur...»	99
«Ul agar bir lutf qilsa, talxni shirin qilur...»	100
«Malaksan yo bashar, yo hur-u g'ilmonsan, bilib bo'lmas...»	101
«Ishq mazhabig'a taqvi-yu toat chidayolmas...»	101
«Dardim o'tig'a yor-u birodar chidayolmas...»	103
«Chun qo'lum birlan ayoqim bog'lamoq hojat emas...»	104
«Naylayin, dildordin begona bo'ldum oqibat...»	104
«Qildi bul charxi falak rasvoyi davron oqibat...»	105
«Onadin bo'ldum, jahonda bo'lmadim shod oqibat...»	107
«Tarozuyi amalni qo'lga ol, so'ngra barobar tut...»	108
«Namangandin ketar bo'lsam, mani yo'qlar kishim bormu?»	110
«Agar har bandaga Xalloqi olam rahnamo bo'lmish...»	111
«Lomakonning shahrida oshiqni shaydo qildi ishq...»	111
«Asli bilsang, hujrayi dilga shariatduri chirog'...»	112
«Nafsi sarkash muddaosidin Xudo bersun panoh...»	113
 MURABBA'	115
 MUXAMMASLAR	116
«Jasad begonadur ul damki, nogoh sardin ayrilsa...»	116
«Ibtido Allohu Akbardin nishon kelturmisham...»	118
 MUSADDAS	120

10.800 c.

*Adabiy-badiiy nashr*

# MASHRAB

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahreddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyası: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Ofset qog'oti. Qog'oz bichimi: 84x108

Offset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli h.t.: 5,2.

Adadi: 4000 nusxa.

Buyurtma № 56

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>h</sup>-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: [info@akademnashr.uz](mailto:info@akademnashr.uz)

web: [www.akademnashr.uz](http://www.akademnashr.uz)

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyorilar ko'chasi 6-uy.



ISBN 978 9943-6359



9 789943 6359